

UNIVERSAL INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

Vol. 1 No. 5 (2024):



ISSN: 3060-4540



ResearchGate

<https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/index>

TAHRIRIYAT KENGASHI

Bosh muharrir

Abdutilibov Muhridin Zuhridin o'g'li

Bosh muharrir o'rinbosari, texnik muharrir

Xusanov Saydulloxon

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

01.00.00 – Fizika-matematika fanlari	PhD. J. Ziyoviddinov PhD. X.Qo'shaqov
02.00.00 – Kimyo fanlari	k.f.d., dots. N.X.To'xtaboyev
03.00.00 – Biologiya fanlari	b.f.d., prof. N.A.Xo'jamshukurov b.f.d., prof. A.K.Xusanov b.f.n., dots. F.M.To'xtaboyeva b.f.n., dots. A.A.Imirsinova PhD. Sh.A.Tashbayev PhD. M.Sh.Jaynaqov PhD. G'.G'ulomov PhD. G.O.Akbarova PhD. D.B.Turabekova PhD. B.Azimov PhD. F.S.Xudoynazarov PhD. M.B.Mavlyanov
05.00.00 – Texnika fanlari	PhD. F.Yuldashev
06.00.00 – Qishloq xo'jaligi fanlari	t.f.d., prof. B.M.Rasulov
07.00.00 – Tarix fanlari	t.f.d., dots. S.Hoshimov
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari	i.f.n., dots. D.Nurmatov
09.00.00 – Falsafa fanlari	PhD. X.Xolmirzayev
10.00.00 – Filologiya fanlari	f.f.d., prof. B.Raxmonov PhD. U.B.Raxmonov
11.00.00 – Geografiya fanlari	g.f.d., dots. A.Isayev PhD. Z.Temirov
13.00.00 – Pedagogika fanlari	PhD. U.T.Shoabduraximova PhD. A.Abdullayeva
19.00.00 – Psixologiya fanlari	p.f.d. prof. M.Xalimova



Rasmiy sayt: www.universaljurnal.uz



Telegram manzil: https://t.me/universal_jurnal

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami: № 245196

GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari asosida bo'lishini to'liq ta'minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi o'rnatilgan tartibda raqam taqdim etildi asosan davriy nashrlarini ISSN tartib raqami bilan belgilash uchun qo'yidagi raqam taqdim etildi: **ISSN - 3060-4540**

© Jurnalda berilgan materiallarning mazmuni va haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari javobgardirlar.



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.3060/4540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 5

Published: 06.08.2024 <https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

Xoshimova Umida Talat qizi

Nizomiy nomidagi TDPU ning mustaqil tadqiqotchisi

Uzbekistan

umidaxoshimova08@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0002-2295-6903>

AMALIY SAN'AT DARSLARIDA TALABALARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING BADIY TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTDAGI HOLATI

Annotatsiya: Pedagogika oliy o'quv yurtlarida falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya, matematika va boshqa fanlardan saboq beriladi. Lekin ular har bir soha ixtisoslik fanlariga moslashtirilgan tarzda o'qitilmaydi. Shu qatorda, mantiq fani barcha sohalar kabi pedagogika universitetlarida ham o'rgatiladi, lekin o'sha mutaxassislikni o'ziga xos tomonlari hisobga olinib o'rgatilishi lozim.

Аннотация: В педагогических вузах преподаются философия, этика, эстетика, логика, психология, математика и другие предметы. Но их преподавание не адаптировано к каждой области специализации. Кроме того, в педагогических вузах преподают науку логику, как и все направления, но преподавание этой специальности должно осуществляться с учетом ее особенностей.

Abstract: Philosophy, ethics, aesthetics, logic, psychology, mathematics and other subjects are taught in pedagogical universities. But they are not taught in a way that is adapted to each field of specialization. In addition, the science of logic is taught in pedagogical universities, like all fields, but this specialty should be taught taking into account its specific aspects.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, islohotlar, mantiq, badiiy tahlil, tafakkur, fikrlash qobiliyati, mantiqiy fikrlash, rivojlanish, ta'lim metodlari.

Ключевые слова: образовательная система, реформы, логика, художественный анализ, мышление, умение мыслить, логическое мышление, развитие, методы обучения.

Keywords: educational system, reforms, logic, artistic analysis, thinking, ability to think, logical thinking, development, educational methods.

Language: Uzbek

Citation: Xoshimova , U. (2024). ART EDUCATION THEORY AND PRACTICE OF STUDENTS' LOGICAL THINKING DEVELOPMENT IN APPLIED ART LESSONS. Universal International Scientific Journal, 1(5), 3–6. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/969>

Doi: [10.69891/3060-4540.2024.1.1.001](https://doi.org/10.69891/3060-4540.2024.1.1.001)

KIRISH

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim mazmunini umuminsoniy qadriyatlar va xalqimizning tarixiy-madaniy an'analari asosida tashkil etishga keng yo'l ochib berdi. Natijada ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Ayni paytda ular takomillashtirilmogda, modernizatsiya qilinmogda. Komil inson g'oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Zamonaviy dunyoda bilimli, yuqori malakali aholi bir mamlakat uchun muvaffaqiyatning kaliti ekanligini e'tirof etgan rus jurnalist va yozuvchisi G.S.Petrovning ta'kidlashicha, Finlandiya ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida shuni ko'rish mumkinki, mamlakatda ta'limning sifatining yuqori darajaga qo'yilishi, mamlakatni bir zamonlar botib qolgan “botqog'i”dan qutilib chiqqaniga guvoh bo'lishimiz mumkin.[5;31]

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya, matematika va boshqa fanlardan saboq beriladi. Lekin ular har bir soha ixtisoslik fanlariga moslashtirilgan tarzda o'qitilmaydi. Professor S.S Bulatov tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida kompozitsiya, amaliy san'at, naqqoshlik, chizmatasvir, rangtasvir, san'at tarixi va boshqalar bilan birga tarix, oliy matematika, mantiq, falsafa, psixologiya, etika kabi umumkasbiy fanlar o'qitiladi. Lekin ularda umumkasbiy fanlar tasviriy va amaliy san'at fanlari bilan uyg'unlikda bog'lab o'rgatilmaydi.[2;5]

Shu qatorda, mantiq fani barcha sohalar kabi pedagogika universitetlarida ham o'rgatiladi, lekin o'sha mutaxassislikni o'ziga xos tomonlari hisobga olinib o'rgatilmaydi. Shuning uchun ham, tayyorlayotgan kadrlarimizda maxsus fanlar

bo'yicha mantiqiy fikrlash, mushohada yuritish yetarli darajada shakllanmogda deya olmaymiz. Bu holni oddiy savol-javoblardan ham bilib olishimiz mumkin. Badiiy iqtisoslikka yo'naltirilgan kadrlarning kasbiy sifatini yanada oshirish maqsadida o'quv rejadagi falsafaga ajratilgan soatlarning muayyan qismini mantiq faniga ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Mantiq- bu fikrlash haqidagi fan. Fikrlash bundan tashqari psixologiya, oliy nerv tizimi fiziologiyasi va boshqa sohalarning asosiy tshunchasi hisoblanadi. Xo'sh, nima sababli fikrlash mantiq faninig asosi hisoblanadi? Sababi, mantiq fikrlash tizimi va tafakkur rivojlanishi, asosiy qoidalari va metodlari, hamda asosiy qonunlarini o'rganadi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy esa shunday deb yozadi: “Inson nutqqa ega bo'lgan va o'zining muxoliflari bilan dunyoviy va oxirat ishlari haqida bahs-munozara yuritganligi sababli o'z so'zlarida “mezonga” muhtoj bo'ldi. Gap o'z zoti bilan rostni ham, yolg'onni ham o'z ichiga olish ehtimoli borligidan mezon yordamida uni izchil tekshirish va shu yo'sinda uning shubhali yerini tuzatish kerak bo'lgan. Zeroki, bu bilan mubohasalarda so'zlardan tuzilgan sillogizmlarning kishini adashtiruvchi yolg'oni ham, haqiqatni ochuvchi rosti ham ayon qilingan. Inson shu mezonni topdi. Uni mantiq deyiladi”.[1;64]

Antik davrda mantiqqa “organon”, ya'ni bilimlarni asoslash quroli deb qaralgan bo'lsa, o'rta asrlar Yaqin va O'rta Sharq mantiqshunoslari uni “chin fikrni yolg'ondan ajratib ko'rsatuvchi tarozu” deb bilganlar.Abu Homid G'azzoliyning mantiqqa bag'ishlangan asarini “Al-qustas al-mustaqim”, ya'ni “to'g'ri tarozu” deb nomlanishi fikrimizni tasdiqlaydi. O'rta asrlar Yevropa mantiqshunoslari uni “kashfiyotlar qilish usuli” sifatida talqin qilganlar.

Nemis mantiqshunos olimi I.Kant esa mantiqni “kanon”, ya’ni fanlarni o’rganish qonunlarini beruvchi fan deb ta’riflagan. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o’rni va unda o’rganadigan masalalar doirasidan kelib chiqib, uni “propedeutika”, ya’ni boshqa fanlarni o’rganishga tayyorlovchi fan deb atash mumkin.[3;79]

Demak, mantiqni boshqa fanlarni o’rganishga tayyorlovchi fan deb qaraydigan bo’lsak, albatta, tasviriy san’at va amaliy san’at darslari jarayonida talabalarga tasviriy san’atni mantiq faniga bog’lagan holda o’tilishi maqsadga muvofiq bo’ladi desa bo’ladi. Amaldagi o’quv rejani ko’radigan bo’lsak, Mantiqqa Falsafa fani tarkibida 6 soat ajratilgan. Bu ajratilgan dars soati faqat 1 bosqich talabalariga tegishli. Qolgan bosqichlarda Mantiq faniga soatlar ajratilmagan. Achinarlisi, pedagogika universiteti “Professional ta’lim” fakulteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi talabalarining badiiy estetik komponentini rivojlantirishda mantiq faniga 4 yillik o’quv jarayonida bor yo’g’i 6 soatlik dars soati ajratilganidadir.

Mantiq va tasviriy san’atning o’zaro aloqadorligini tahlil etgan falsafa fanlari nomzodi, dotsent D.N. Demenov tadqiqotlariga ko’ra, badiiy jarayonda mantiqning mohiyati “buni shunday qilish kerak” yoki “boshqa yo’l bilan emas”, balki jarayonning o’zgaruvchanligiga qarab o’zgaruvchan bo’lishi mumkinligida ifodalanadi. U o’rganilayotgan san’atning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlariga qarab farq qilishi mumkin. Mantiq badiiy taraqqiyot bosqichida har xil bo’lishi mumkin: makrodarajada badiiy jarayon- badiiy obrazlarning shakllanish mantig’iga; makro darajasiga – keng qamrovli badiiy uslublar va yo’nalishlarda mujassamlangan ko’plab formal yechimlar. Mantiq dunyoni ongli va ongsiz ravishda aks ettirish, shuningdek, san’atda o’z-o’zini namoyon qilish - ko’p qirrali badiiy jarayonning xilma-xilligining kichik bir qismidir.

D.N.Demenyov o’z tadqiqotlarida mantiq va tasviriy san’atning bog’liqligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Estetik mantiq- rangdan

mantiqning umumiy qismi sifatida foydalanmoqda. Estetik mantiq- bu rassomda asarining shakl va mazmuni o’rtasidagi munosabatda ifodalanib, vaqt omili orqali o’zini namoyon qilish faoliyatidir. Bu mantiq badiiy jarayonning o’zgaruvchanligiga qarab o’zgaruvchan bo’lishi mumkin”. [6;74]

MUHOKAMA

Xo’sh, qanday qilib mantiqni Tasviriy san’atga bog’lab o’qitish mumkin degan savol yuzaga keladi. Albatta, bu o’rinli savoldir. Sababi, bu borada qandaydir yo’riqnoma yoki qo’llanma mavjud emas. Bu borada “Mantiq” yo’nalishida ko’p yillik tajribaga ega mantiqshunos olimning tavsiyalari, bilim, malaka va ko’nikmalaridan foydalanib, qo’llanma va dasturni tuzish mumkin.

Yanada chuqurroq mulohaza qiladigan bo’lsak, mantiqda keltirilgan terminlarni o’zgartirib, Tasviriy san’atga bog’lab bo’lmasligi aniq. Lekin, mantiqni misollar, masalalarsiz o’rganib bo’lmasligini inobatga oladigan bo’lsak, mantiqiy misollarni yoki savollarni Tasviriy san’atga bog’lasak bo’ladi.

Tafakkur ko’p qirrali jarayon bo’lib, uni turli xil tomonidan, xususan, mazmuni va shakli (strukturalari) bo’yicha, tayyor holda yoki kelib chiqishi va taraqqiyotida olib o’rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlicha metodlardan foydalanishiga, har xil yo’nalishlarga ajralishiga sabab bo’ladi.[4;9]

Tafakkurning ko’p qirrali hususiyatini inobatga olib, mantiqni qiyinchiliklarsiz tafakkurni ishlatgan holda Tasviriy san’atga bog’lasak bo’ladi. Misol uchun, T.Ismoilovning “Mantiq” fani bo’yicha ma’ruzalar matnidan foydalanadigan bo’lsak;

“Har bir kimyoviy element o’z atom og’irligiga ega”.

“Mis – kimyoviy element”.

Demak, “Mis o’z atom og’irligiga ega”. kabi misolni oladigan bo’lsak, biz misolni “kimyo” faniga moslashtirilganini tahlil qilishimiz mumkin. Endi, Tasviriy san’atga bog’lab ko’radigan bo’lsak;

“Tasviriy san’at — rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san’at turi”.

“Leonardo da-Vinchining “Mona Liza” portreti Rang tasvirning noyob durdonasidir”.

Demak, “Leonardo da-Vinchining “Mona Liza” portreti Tasviriy san’at asari hisoblanadi” kabi ko`rinishda bo`ladi.

Yuqoridagi keltirilgan misollar tafakkur shakli. sh hollari mazmuni bo`yicha turlicha bo`lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo`lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda – « kimyoviy element », ikkinchi misolda – «Rang tasvir» tushunchasi) orqali bog`langan.

NATIJALAR

Har bir ixtisoslikka mantiqni shu fan yo`nalishi bilan bog`lab, uzviy aloqadorlikda o`qitish kerak. Buning uchun dars beruvchi mutaxassis rassom-faylasuf, amaliy san’at ustasi-faylasuf, tilshunos-logik, musiqashunos–logik, ximik–logik iqtisodlik tafsilotlarini yaxshi bilgan mutaxassis bo`lishi lozim. Shunda, o`qituvchi ustoz o`z talabasiga Amaliy san’atning qonun va kategoriyalarini amaliy bezak san’ati misolida teran tahlil qilib bera oladigan bo`la oladi.

Yana shu narsa ayon bo`lmoqdaki, tafakkurni ishga soladigan bo`lsak, yuqorida keltirilgan misollardan ko`plab foydalanishimiz va “Mantiq” fanini “Tasviriy san’at” faniga moslashtirgan holda dasturni, qo`llanmani tuzishimiz mumkin. Tuzilgan dastur va qo`llanmadan ushbu ta`lim yo`nalishida

tahsil olayotgan oliygoh talabalariga “Mantiq” fanini “Tasviriy san’at” faniga moslashtirilgan holda o`qitishimiz mumkin bo`ladi. Bu esa, ushbu oliygohda tahsil olayotgan talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatining yanada rivojlanishini kuzatishimiz, tafakkur qobiliyatining yuksalayotganiga va asarlarni mazmun – mohiyatini tahlil qilishda kuchli iqtidor bilan yondashishlariga guvoh bo`lishimiz mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ta`lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda tasviriy va amaliy san’at yo`nalishlarida mantiq fani tasviriy san’at va amaliy san’atga bog`lab dars jarayonlari tashkil etilgan va bu borada maqolalar yozilib, ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

XULOSA

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo`nalishi talabalariga mantiq fani nafaqat tasviriy san’at va amaliy san’at darslari jarayonida, balki muhandislik grafikasi yo`nalishida ham nuqtalarning fazoviy koordinatalarini belgilashda, binolarning inter`er va ekster`erini chizishda ham muhim bo`lak hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu yo`nalish bitiruvchilari badiiy va amaliy ijod bilan shug`ullanishlari uchun mantiqiy tafakkurlari rivojlangan bo`lsa yaratgan san’at asarlari kolorit va serma`no yechimlarga ega kompazitsiyaga aylanishi mumkin. Hamda, mantiqiy fikrlashi rivojlangan talabalar tasviriy va amaliy san’at asarlarini mazmun mohiyati, ortida yashirilgan sir-asrorlarini falsafiy g`oya sifatida tahlil qilishadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Абу Райхон Беруний. Геодезия. Т., 1982. –Б.64
2. Булатов С.С, Соипова М.С. “Бадий тахлил тамойиллари”, “Фан ва технология” нашриёти, Т. 2016. Б. 5
3. Mamadiyeva N.X. Falsafa (Mantiq qismidan). O`quv uslubiy qo`llanma. – Т.: ToshDTU, 2021. В 79
4. Т. Ismoilov. “Mantiq” fani bo`yicha ma`ruzalar matni. Namangan Davlat universiteti – 2023. В. 9
5. G.Petrov. Oq nilufarlar yurtida. Inglizchadan N.Sultonmurodov tarjimasini. “Faktor press”. Toshkent 2021. В. 31
6. Д.Н.Деменёв. Кандидат философски хнаук доцент, О логике художественного процесса. Статья из рубрики "Философия и искусство"/2017. С. 74



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.5)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 5

Published: 07.08.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF



Abduqaxxarov Murodilla Omonullo o'g'li

Respublika Shoshilinch Tibbiy yordam ilmiy marketing
Namangan filiali bolalar somatikasi bo'limi bo'lim mudiri
Uzbekistan

BOLALARDAGI ATIPIK PNEVMONIYA KASALLIGINING VUJUDGA KELISH SABABLARI VA UNI ZAMONAVIY TIBBIYOTDA SAMARALI DAVOLASH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalardagi atipik pnevmoniyaning turli xil klinik ko'rinishlarini muhokama qiladi, ular engil yuqori nafas yo'llarining alomatlaridan tortib, og'ir nafas olish qiyinlashuvigacha. U atipik pnevmoniya tomonidan taqdim etilgan diagnostika muammolarini o'rganadi, klinik baholash, ko'krak qafasini ko'rish va laboratoriya tekshiruvlarining muhimligini ta'kidlaydi. Nihoyat, referat atipik pnevmoniyani davolashning joriy strategiyalarini muhokama qiladi, qo'llab-quvvatlovchi yordam, antiviral dorilar va antibiotiklardan to'g'ri foydalanish rolini ta'kidlaydi. Bolalardagi atipik pnevmoniya haqida to'liq ma'lumot berish orqali ushbu abstrakt ushbu murakkab holatni tushunishni kuchaytirish, klinik amaliyotga rahbarlik qilish va ta'sirlangan bolalar uchun yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Abstract: This article discusses the various clinical manifestations of atypical pneumonia in children, ranging from mild upper respiratory tract symptoms to severe respiratory distress. It explores the diagnostic challenges presented by atypical pneumonia, emphasizing the importance of clinical assessment, chest imaging, and laboratory testing. Finally, the abstract discusses current management strategies for atypical pneumonia, emphasizing the role of supportive care, antiviral drugs, and appropriate use of antibiotics. By providing a comprehensive overview of childhood atypical pneumonia, this abstract will help increase understanding of this complex condition, guide clinical practice, and improve outcomes for affected children.

Аннотация: В статье рассмотрены различные клинические проявления атипичной пневмонии у детей: от легких симптомов со стороны верхних дыхательных путей до тяжелой респираторной недостаточности. В нем исследуются диагностические проблемы, связанные с атипичной пневмонией, подчеркивая важность клинической оценки, визуализации органов грудной клетки и лабораторных исследований. Наконец, в аннотации обсуждаются современные стратегии лечения атипичной пневмонии, подчеркивая роль поддерживающего лечения, противовирусных препаратов и надлежащего использования антибиотиков. Предоставляя всесторонний обзор атипичной пневмонии у детей, этот реферат поможет лучше понять это

сложное состояние, стать руководством для клинической практики и улучшить результаты лечения больных детей.

Kalit so'zlar: jamiyat tomonidan orttirilgan pnevmoniya, bolalar, epidemiologik jarayon, pnevmoniya, bronxiolit, Polimeraza zanjiri reaksiyasi (PCR) testi

Key words: community-acquired pneumonia, children, epidemiological process, pneumonia, bronchiolitis, Polymerase chain reaction (PCR) test

Ключевые слова: внебольничная пневмония, дети, эпидемиологический процесс, пневмония, бронхиолит, полимеразная цепная реакция (ПЦР).

Language: Uzbek

Citation: Abduqaxxarov, M. (2024). CAUSES OF ATYPICAL PNEUMONIA IN CHILDREN AND METHODS OF EFFECTIVE TREATMENT IN MODERN MEDICINE. Universal International Scientific Journal, 1(5), 7–10. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1070>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13362598>

KIRISH

O'pkaning jiddiy infeksiyasi bo'lgan pnevmoniya, ayniqsa, yosh bolalarning sog'lig'ini tashvishga solmoqda. An'anaga ko'ra, bakterial pnevmoniya bolalar nafas yo'llari infeksiyalari manzarasida ustunlik qiladi. Biroq, so'nggi yillarda, tipik bakteriyalardan tashqari boshqa agentlar keltirib chiqaradigan atipik pnevmoniya bilan o'zgarish yuz berdi va tobora kengayib bormoqda. Ushbu o'zgarish tibbiyot xodimlari uchun diagnostika va terapevtik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bolalardagi atipik pnevmoniya o'ziga xos klinik ko'rinish bilan ajralib turadi, ko'pincha bakterial pnevmoniya bilan bog'liq klassik simptomlardan chetga chiqadi. Uning qo'zg'atuvchisi, birinchi navbatda, viruslar, diagnostika va davolashda nozik yondashuvni talab qiladigan turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Atipik simptomlar va tipik bakterial pnevmoniyadan farqli qo'zg'atuvchisi bilan tavsiflangan atipik pnevmoniya bolalar populyatsiyasida tobora ko'proq tashvishlanmoqda. Ushbu referat bolalardagi atipik pnevmoniya haqida umumiy ma'lumot berishga qaratilgan bo'lib, uning sabablari, klinik ko'rinishi, diagnostikasi va davolashiga e'tibor qaratiladi.

Bolalarda pnevmoniyaning umumiy bakterial sabablari dolzarb bo'lib qolsa-da, atipik pnevmoniya, xususan, respirator sinsitial virus (RSV), gripp va adenoviruslar kabi viruslar keltirib chiqaradigan pnevmoniya tobora kengayib bormoqda. Qo'zg'atuvchining bunday o'zgarishi

ko'pincha engilroq simptomlarni o'z ichiga olgan, ammo asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan noyob klinik ko'rinishlarga olib keldi.

ASOSIY QISM

Atipik pnevmoniya, bakterial hamkasbidan farqli o'laroq, ko'pincha viruslar, jumladan:

Respirator-sinsitial virus (RSV): bronxiolit va pnevmoniyaning keng tarqalgan sababi, ayniqsa chaqaloqlar va yosh bolalarda.

Gripp: Grippning mavsumiy epidemiyasi atipik pnevmoniyaning muhim holatlariga, ayniqsa, sog'lig'i yomon bo'lgan bolalarda olib kelishi mumkin.

Adenoviruslar: Bu viruslar, ayniqsa, yosh bolalarda va immuniteti zaif bo'lganlarda pnevmoniyani o'z ichiga olgan bir qator nafas olish kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. Parainfluenza viruslari, inson metapnevovirusi va rinoviruslar ham bolalarda atipik pnevmoniyaga hissa qo'shishi mumkin.

Atipik pnevmoniya ko'pincha bakterial pnevmoniyaga qaraganda turli xil belgilar bilan namoyon bo'ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Atipik pnevmoniya bakterial pnevmoniya bilan bog'liq yuqori isitma, titroq va tez nafas olish emas, balki doimiy yo'tal, engil isitma va charchoq kabi kamroq og'ir belgilar bilan namoyon bo'lishi mumkin.
- Semptomlar ko'pincha sovuqqa o'xshash ko'rinish bilan boshlanadi, jumladan, burun oqishi, tomoq og'rig'i va tiqilishi, pastki

nafas olish yo'llari tutilishiga o'tishdan oldin sodir bo'ladi.

- Atipik pnevmoniyaning og'irligi juda katta farq qilishi mumkin, yengil, o'z-o'zidan cheklanadigan kasallikdan kasalxonaga yotqizishni talab qiladigan og'ir nafas olish qiyinlashuvigacha bo'lishi mumkin.

Bolalarda atipik pnevmoniya diagnostikasi boshqa nafas yo'llari kasalliklari bilan bir-biriga mos keladigan alomatlar tufayli qiyin bo'lishi mumkin.

To'liq anamnez olish va fizik tekshiruv simptomlar, jiddiylik va xavf omillarini baholash uchun juda muhimdir. Ko'krak qafasi rentgenogrammasi pnevmoniya belgilarini aniqlashga yordam beradi, ammo topilmalar bakterial pnevmoniyadagi kabi dramatik bo'lmasligi mumkin. Balg'am madaniyati va tezkor antigen testlari o'ziga xos virusli patogenlarni aniqlashi mumkin, ammo bu testlar ko'pincha yosh bolalarda ishonchsizdir. Polimeraza zanjiri reaksiyasi (PCR) testi virusli DNK yoki RNKni aniqlay oladi va aniqroq tashxis qo'yadi.

Atipik pnevmoniyani davolash, birinchi navbatda, simptomlarni boshqarish va asoratlarni oldini olishga qaratilgan qo'llab-quvvatlovchi yordamga qaratilgan: To'g'ri dam olish va suyuqlik iste'mol qilish tiklanish uchun juda muhimdir. Antibiotiklar: Ikkilamchi bakterial infeksiyaga shubha bo'lmasa, antibiotiklar odatda atipik pnevmoniya uchun ishlatilmaydi.

Profilaktika hal qiluvchi component hisoblanib, atipik pnevmoniyaning oldini olish juda muhim, ayniqsa zaif bolalarda:

- Emlash: Gripp va pnevmokokkka qarshi emlashlar jiddiy kasalliklarning oldini olishda yuqori samara beradi.
- Qo'l gigienasi: Viruslar tarqalishini kamaytirish uchun qo'llarni tez-tez va yaxshilab yuvish zarur.
- Nafas olish tomchilari bo'yicha ehtiyot choralari: yo'tal va aksirishni ro'molcha yoki tirsak bilan yopish yuqishni minimallashtirishi mumkin.

MUNOZARALAR

Bolalarda atipik pnevmoniyaning tarqalishi respiratorli infeksiyalarning dinamik xususiyatini ta'kidlaydi. Virusli etiologiyalar tomon bu o'tish diagnostika va davolashga nozik yondashuvni, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar haqida xabardorlikni oshirishni talab qiladi. Ushbu munozara kelajakdagi tadqiqotlar va klinik mulohazalar uchun asosiy yo'nalishlarni ta'kidlaydi:

Atipik pnevmoniyani boshqa nafas yo'llarining kasalliklaridan ajratishda klinik ko'rinish va ko'krak qafasining tasviriga tayanish ishonchsiz bo'lishi mumkin. Tez molekulyar testlar va keng tarqalgan virusli patogenlar uchun PCR diagnostikasi kabi diagnostika vositalari bo'yicha keyingi tadqiqotlar erta aniqlash va boshqarishda inqilob qilishi mumkin. Aniqroq va foydalanuvchilarga qulayroq diagnostika vositalarini ishlab chiqish, ayniqsa resurslar cheklangan sozlamalar uchun, o'z vaqtida va to'g'ri davolanishni ta'minlash uchun juda muhimdir.

Qo'llab-quvvatlovchi yordam davolashning asosiy yo'nalishi bo'lib qolsa-da, turli virusli patogenlar uchun antiviral dorilarning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish kerak. Antibiotiklarni nazorat qilish antibiotiklardan keraksiz foydalanishning oldini olish, mas'uliyatli antimikrobiyal amaliyotlarni targ'ib qilish va antibiotiklarga chidamlilik rivojlanishini minimallashtirish uchun juda muhimdir.

Bolalardagi atipik pnevmoniyaning uzoq muddatli oqibatlarini, shu jumladan potentsial o'pka oqibatlarini va surunkali nafas olish kasalliklarini rivojlanish xavfini yaxshiroq tushunish uchun tadqiqotlar zarur. Uzoq muddatli ta'sirni tushunish atipik pnevmoniyani boshdan kechirgan bolalar uchun doimiy boshqaruv strategiyalarini ma'lum qiladi va uzoq muddatli natijalarni optimallashtiradi.

Ota-onalar va tarbiyachilar bilan nafas olish yo'llari infeksiyalarining o'zgaruvchan tabiati va tez tibbiy yordam ko'rsatishning ahamiyati haqida aniq va aniq muloqot qilish juda muhimdir.

Oilalarni atipik pnevmoniyaning dastlabki belgilari va profilaktika choralari haqida bilim bilan mustahkamlash erta aralashuvni yaxshilash va natijalarni optimallashtirish imkonini beradi.

NATIJALAR:

Kasallikning kuchayishi: Tadqiqotlar doimiy ravishda bolalarda, ayniqsa yosh guruhlarda atipik pnevmoniya bilan kasallanishning ortib borayotganini ko'rsatadi. Viruslar, xususan, RSV, gripp va adenoviruslar ko'plab sharoitlarda an'anaviy bakterial sabablardan ustun bo'lib, atipik pnevmoniyaning asosiy sabablari hisoblanadi. Maxsus virusli patogenlarning tarqalishi mavsumiy ravishda o'zgarib turadi, qish oylarida RSV eng yuqori cho'qqisiga chiqadi va gripp epidemiyasi ma'lum davrlarda sodir bo'ladi.

Atipik pnevmoniya ko'pincha bakterial pnevmoniyaga qaraganda kengroq simptomlar bilan namoyon bo'ladi, jumladan yo'tal, engil isitma va charchoq kabi engil alomatlar, shuningdek, burun oqishi va tiqilishi kabi yuqori nafas yo'llarining belgilari. Uning og'irligi juda xilma-xil bo'lishi mumkin, ba'zi holatlar tezda hal qilinadi, boshqalari esa nafas olish qiyinlashuvi tufayli kasalxonaga yotqizishni talab qilishi mumkin.

Hidratiya, dam olish va antipiretiklarni o'z ichiga olgan qo'llab-quvvatlovchi parvarish ko'pincha simptomlarni boshqarishda va atipik pnevmoniyadan tiklanishga yordam beradi. Grippga

qarshi oseltamivir kabi antiviral dorilarning samaradorligi o'ziga xos virusga va davolash vaqtiga qarab o'zgaradi. Atipik pnevmoniya uchun kasalxonaga yotqizish darajasi, ayniqsa, sog'lig'i yomonlashgan chaqaloqlar va bolalarda ortib bormoqda.

Umuman olganda, so'nggi tadqiqotlar bolalarda atipik pnevmoniyaning keng tarqalganligi va murakkabligini ta'kidlaydi. Diagnostika vositalarini takomillashtirish, davolash strategiyalarini optimallashtirish va rivojlanayotgan respirator infeksiyaning yukini minimallashtirish uchun samarali profilaktika choralari ishlab chiqish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, atipik pnevmoniya muhim rol o'ynagan bolalar respirator infeksiyalarining rivojlanayotgan manzarasi doimiy tadqiqotlarni, innovatsion diagnostika strategiyalarini va bemorlarning natijalarini yaxshilash uchun birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. Klinik ekspertiza, jamoat salomatligi tashabbuslari va davom etayotgan ilmiy tadqiqotlar kombinatsiyasi orqali biz atipik pnevmoniyani yaxshiroq tushunishimiz, oldini olishimiz va davolashimiz, bolalarning salomatligi va farovonligini ta'minlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. A. Gorbich Atipik pnevmoniya bolalik davridagi muhim muammo hisoblanadi EE "Belarus davlat tibbiyot universiteti"
2. Trubnikov, G.V. Polyakova, I.G., Butakova, L.Yu kasalxonaga yotqizish bosqichida: retrospektiv diagnostika bo'yicha atipik (mikoplazma va xlamidiyal) infeksiyalarni hisobga olgan holda klinik xususiyatlar / G.V.Polyakova, I. Butakova // Yangi Sankt-Peterburg tibbiyot gazetasi. – 2010. – 1-son (51). – 59–63-betlar.
3. Arnold, F. V. va boshqalar. Jamiyat tomonidan olingan pnevmoniyadagi atipik patogenlarning dunyo bo'ylab istiqboli / F. V. Arnold va boshqalar. // Amerika nafas olish va jiddiy tibbiy yordam jurnali. – 2007. – jild. 175, No 10. – B. 1086–1093.
4. Capelastegui, A. va boshqalar. Aholiga asoslangan tadqiqotda jamiyat tomonidan olingan pnevmoniya etiologiyasi: etiologiya va bemorning xususiyatlari, parvarishlash jarayoni, klinik evolyutsiya va natijalar o'rtasidagi bog'liqlik / A. Capelastegui va boshqalar. // BMC yuqumli kasalliklari. – 2012. – jild. 12, № 1. – 134-bet.
5. Korppi, M. Heiskanen-Kosma, T., Kleemola, M. Mycoplasma pneumoniae sabab bo'lgan bolalarda jamiyat tomonidan olingan pnevmoniya insidansi: birlamchi tibbiy yordamda istiqbolli, aholiga asoslangan tadqiqotning serologik natijalari / M. Korppi, T. Heiskanen-Kosma, M. Kleemola // Respirologiya. – 2004. – jild. 9, No 1. – B. 109–114.



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.5)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 5

Published: 10.08.2024 <https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

Jo'raxo'jayeva Sayyora Dedamirza qizi

Yangiqo'rg'on tumani 21-o'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Uzbekistan

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKAGA OID MANTIQUIY MUSHOHADA YURITISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish xususida so'z boradi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari bu - o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat usullari bo'lib, bu faoliyat orqali yangi bilimlar, malakalar va ko'nikmalarga erishiladi, kelgusida matematika faninig yuqori bosqichlari uchun kerakli bilim zahirasini to'plash imkonini beradi. Beriladigan savollar o'quvchilarning fikrlashini faollashtirish uchun ularni voqea-hodisalar va faktlarni taqqoslashga, solishtirishga, ularni ajratish yoki guruhlashga, ular orasidagi bog'lanishlarni izlashga undaydi. Buning uchun, masalaga muammo sifatida yondashish, muammoni qo'yish, yetishmaydigan ma'lumotlarni izlash va ilmiy gipotezalarni shakllantirish, gipotezalarni tekshirish va muammoli vaziyatga oid yangi bilimlarga ega bo'lish kabi bosqichlarni amalga oshirish kerak. O'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlarining bir necha turlari mavjud. O'quvchilar bilim oladigan manbalar bo'yicha: og'zaki, ko'rsatmali, amaliy metodlar bo'lib, ularni dars jarayonida qo'llashning qulay usullari tavsiya etilgan.

Аннотация: В данной статье речь идет о развитии деятельности логического наблюдения учащихся младших классов по математике. Известно, что методы организации обучения и учебной деятельности на начальных уроках математики – это методы совместной деятельности учителя и учащихся, благодаря которым приобретаются новые знания, умения и навыки, в дальнейшем математика позволяет накопить необходимые знания для высших ступеней науки. С целью активизации мышления учащихся задаваемые вопросы побуждают их сравнивать, противопоставлять, разделять или группировать события и факты, искать связи между ними. Для этого необходимо подойти к проблеме как к проблеме, поставить проблему, найти недостающую информацию и сформулировать научные гипотезы, проверить гипотезы и получить новые знания о проблемной ситуации. Существует несколько видов методов организации учебной деятельности.

По источникам, из которых обучаются студенты: рекомендуются устные, инструктивные, практические методы, удобные способы их использования в ходе урока.

Abstract: This article deals with the development of the activity of logical observation of elementary school students in mathematics. It is known that the methods of organizing learning and learning activities in elementary mathematics classes are the methods of joint activities of the teacher and students, through which new knowledge, skills and abilities are gained, in the future mathematics allows you to accumulate the necessary knowledge for the higher stages of science. In order to activate students' thinking, the questions asked encourage them to compare, contrast, separate or group events and facts, and look for connections between them. To do this, it is necessary to approach the problem as a problem, pose a problem, search for missing information and formulate scientific hypotheses, test hypotheses and gain new knowledge about the problem situation. There are several types of methods of organizing educational activities. According to the sources from which students learn: oral, instructive, practical methods, convenient ways of using them in the course of the lesson are recommended.

Kalit so'zlar: metodlar, analiz, sintez, taqqoslash, kuzatish, tajriba, amaliy kompetensiyalar, ilmiy izlanish metodlari, standart talablari, masala, ifoda, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik. mustaqil ish, idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, nutq.

Ключевые слова: методы, анализ, синтез, сравнение, наблюдение, опыт, практические компетенции, методы научного исследования, стандартные требования, проблема, выражение, критическое мышление, творчество. самостоятельная работа, восприятие, память, мышление, воображение, речь.

Keywords: methods, analysis, synthesis, comparison, observation, experience, practical competencies, scientific research methods, standard requirements, problem, expression, critical thinking, creativity. independent work, perception, memory, thinking, imagination, speech.

Language: Uzbek

Citation: Jo'raxo'jayeva , S. (2024). DEVELOPMENT OF LOGICAL OBSERVATION ACTIVITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS ABOUT MATHEMATICS. Universal International Scientific Journal, 1(5), 11–16. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1084>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13368603>

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida maktab ta'lim tizimidagi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zamonaviy talablar doirasida mavjud metodika va texnologiyalarni boyitish va yangilash bo'yicha yo'nalishlar dolzarbligi ortib bormoqda. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ularning yosh xususiyatlariga mos matematik bilish usullarini takomillashtirish vazifasini qo'yadi. Shuning uchun ham, ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz zarur. Ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag'larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak. Shuningdek, o'quvchilarning matematikadan bilimini oshirish, matematik fikrlash qobiliyatini o'stirish, bilish faolligini oshirish, hisoblash

malakalarini rivojlantirishga qaratilgan matematik modellashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ta'limni barcha bosqichlarida matematika fanini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan pedagoglarning samarali mehnatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash shuningdek 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha matematik tasavvurlarni shakllantirish, matematik tasavvurlarni shakllantirish, matematika fanini o'qitish sifatini oshirish, matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutiladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar bilish faoliyati butun ta'lim-tarbiyaviy jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarni matematika fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshishiga yordam beradi. Ularni tarkibiga analiz va sintez usullari ham kiradi. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda analiz va sintez metodlari turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, masalalar yechish usuli, matematik tushunchalar, xossalarni o'rganish usuli va tadqiqot usullarini ko'rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy tadqiqot metodlari – bu qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rnatish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarni olish usullaridir. O'quvchilarga egallangan bilim, o'quv va malakalarni turli xil sharoitlarda qo'llanishga o'rgatishni o'qitishning maxsus masalasi sifatida qarash kerak. Bu o'quvchilarni dastlabki tayyorgarligiga qaratilgan ishning boshlanishidir.

Bu esa o'quvchilarning qobiliyatlarini o'stirishdek dolzarb muammo bilan uzviy bog'liqdir. S.Aloxonovning fikricha, boshlang'ich sinflardanoq, o'quvchilarda tevarak atrofdagi buyum va predmetlarni solishtirish, taqqoslash, voqea va hodisalarni kuzatish, ularning o'xshashlik va farq tomonlarini, belgilarin ajrata olishni uddalash kabi tahlil, umumlashtirish, abstraktsiyalash kabi qobiliyatlari ko'rina boshlaydi. Rivojlanayotgan ta'lim haqida gapirganda ish faqat bilish qobiliyatlarini (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, nutq,) rivojlantirishdangina iborat, deb o'ylash xato fikrdir. Shunday ekan, matematikani chuqur o'rganish, uni hayotiy misollarga qo'llash, xotira va tafakkurni shakllantirib qolmay, balki o'quvchilarda chidamlilik, matonat, mehnat qilish, qiyinchiliklarni yengish kabi ko'nikmalarni shakllantirib boradi. U mehnat qilishga odatlanish va fikrini mustaqil ifoda etish kabi extiyojni tarbiyalash bo'yicha doimiy sistemali ishlash uchun imkon beradi, tafakkur qilish va mehnatni to'g'ri tashkillash, diqqatni jamlash, aniq fikrlashni talab

qiladi. L.O'rinboeva muallifligidagi 3-sinf darsligida masalalar boshda mudim vazifani ham bajaradi. V.P.Ruchkinaning ta'kidlashicha, o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, masalani tahlil qilish qilish, umumlashtirish, berilganlar va izlanayotganlar orasidagi bog'lanishlarni payqash, kerakli qonuniyatlarni bog'lagan xolda yechim yo'lini izlashga tomon fikrlash jarayonini ochib berish abstraktsiyalash va aniqlashtirish, qaralayotgan hodisalar orasidagi mavjud bog'lanishlarni ochib berish malakasini o'stiruvchi foydali vosita ham bo'ladi.

Matematika fani mavjud moddiy dunyodagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o'rganish jarayonida "ilmiy izlanish" metodlaridan foydalanadi.

Ularni tarkibiga analiz va sintez usullari ham kiradi. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda analiz va sintez metodlari turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, masalalar yechish usuli, matematik tushunchalar, xossalarni o'rganish usuli va tadqiqot usullarini ko'rsatish mumkin. O'quvchining fikrini yo'nalishiga ko'ra metodlardan analiz va sintez masala yechish jarayonida bir birini to'ldiradi, va alohida bir analitik –sintetik usulni hosil qiladi. Berilgan murakkab masalani analiz yordamida bir nechta sodda masalalarga ajratish mumkin. Sintez yordamida bu sodda masalalardan butun bir masalani hosil qilish mumkin.

Ma'lumki, matematika fanini o'rganadigan obyekt materiyadagi narsalarning fazoviy shakllari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. S.Alixonovni aytishicha bu shakllar orasidagi miqdoriy munosabatlarni aniqlash jarayonida matematiklar izlanishning ilmiy metodlaridan vosita sifatida foydalanadilar. Analiz metodi orqali fikrlashda o'quvchi quyidagi savolga javob berishi kerak: "izlanayotgan noma'lumni topish uchun nimalarni bilish kerak?". Analiz metodi psixologik nuqtai nazardan: butunlardan bo'laklarga tomon izlsh metodi sifatida qaraladi. Fikrlashning analiz usulida har bir qadamning o'z

asosi bor bo'ladi, ya'ni har bir bosqich bizga ilgari ma'lum bo'lgan qoidalarga asoslanadi.

NATIJALAR

Boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llaniladigan analiz va sintez bu- ikkinchi bosqich amallar hisoblanadi.. Bu fikrlashning usullari nafaqat ilmiy-tadqiqot usuli, o'quv materialini o'rganish usullari sifatida, o'quvchilarning tafakkurini o'zlashtiruvchi jarayon sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bu metodlar ikki xil shaklda, ya'ni filtr shaklida va sintez orqali qo'llaniladi. Birinchi shakldagi analizda masalani yechayotgan kishi tasodifiy ravishda yechish usulini izlab birin-ketin mavjud usullarni qo'llab ko'radi. Sonlarni birliklariga ajratishda va ularni bir butun yozishda ilmiy izlanish metodlarining analiz va sintez qismidan foydalaniladi.

Eng kichik va eng katta bir xonali, ikki xonali, uch xonali va to'rt xonali sonlarni raqamlar ko'rinishida yozing;

- bitta minglik, yettita yuzlik, yettita o'nlik, beshta birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 1775
- uchta minglik, to'rtta yuzlik, beshta o'nlik, ikkita birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 3452
- beshta minglik, oltita yuzlik, to'qqizta o'nlik, uchta birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 5693
- sakkizta minglik, beshta yuzlik, oltita o'nlik, uchta birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 8563
- oltita minglik, to'rtta yuzlik, yettita o'nlik, ikkita birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 6472

Masala tahlilini uning savolidan, berilganlaridan ham boshlash mumkin. Shuni muhimki, yechish yo'llarini izlash maqsadga yo'naltirilgan mazmunda bo'lishi kerak, berilgan ma'lumotlar bo'yicha topish mumkin bo'lgan kattaliklar yechimga yordam beradimi yoki aksincha, masala savoliga javob berish uchun nimani bilish kerak - kabi savollar berilib boriladi.

Abstract: As a result of the improvement of the quality of education, the spiritual image and goals of the leaders of pre-school education organizations are becoming different today. Leaders of each preschool educational organization are trying to find ways to organize their activities in a unique direction. At the same time, the leaders of pre-school education organizations and the future leaders of pre-school education organizations, who are entering this activity, continue to constantly seek to improve their professional abilities. This article highlights the moral quality competencies of the heads of preschool educational organizations.

Key words: competence, moral quality competences of the heads of pre-school educational organizations, personal qualities, professional competences, social competences

Аннотация: В результате повышения качества образования духовный облик и цели руководителей организаций дошкольного образования сегодня становятся иными. Руководители каждой дошкольной

образовательной организации пытаются найти пути организации своей деятельности в уникальном направлении. При этом руководители организаций дошкольного образования и будущие руководители организаций дошкольного образования, вступающие в эту деятельность, продолжают постоянно стремиться к совершенствованию своих профессиональных способностей. В данной статье освещаются морально-качественные компетенции руководителей дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: компетентность, морально-качественные компетенции руководителей дошкольных образовательных организаций, личностные качества, профессиональные компетенции, социальные компетенции.

Language: Uzbek

Citation: Mirzayeva Husnida Dilshodbek qizi , M. H. D. qizi. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING AHLOQIY SIFAT KOMPETENTSIYALARI. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(5), 27–31. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1086>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13682719>

Zamon rivojlanib borar ekan, har bir faoliyat o'zida yangicha usullarni qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari rivojlanishning eng muhim bo'g'inida turganliklari tufayli, mazkur maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarlar zimmasiga chuqur mas'uliyatni yuklaydi. Bu mas'uliyatli vazifani samarali ado etishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlar o'zida kasbiy kompetentlikni shakllantirgan bo'lishi g'oyatda muhimdir.

Kompetentlik – kasbiy mahorat belgisi sifatida pedagogdan talab qilinayotgan xususiyatdir.

“Kompetentsiya” va “kompetentlik” atamaları o'zakdosh so'zlar bo'lib, ular g'arb ilmiy adabiyotida XX asrning 60 yillari oxiri, 70 yillarda paydo bo'ldi. “Kompetentsiya” atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90 yillaridan e'tiboran ishlatila boshlandi Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik barcha tarbiyachi hamda pedagoglarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda ta'limiy faoliyatlarni zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda bu

sohaga yosh mutaxassislar kelib qolishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida maktabgacha ta'lim tashkilotirahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi.

Kompetentlik-ma'lum bir holat xususida to'g'ri mulohaza yuritish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo'lish, dalil isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama[1].

Ba'zi olimlar "kompetentlik"ni amaliy va nazariy bilimlar, kognitiv qobiliyatlar, xatti-harakatlar va ish faoliyatini yaxshilash uchun foydalaniladigan qadriyatlarining kombinatsiyasi deb biladilar yoki yaxshi malakaga ega bo'lish, muayyan ro'lni bajarish qobiliyatiga ega bo'lish holatidir. Masalan, boshqaruv kompetensiyasi tizimli fikrlash va hissiy intellektni, ta'sir qilish va muzokaralar olib borish ko'nikmalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Kompetentlik (Competence) bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompetentsiya juda murakkab va keng qamrovli tushunchani qamrab oladi va turli olimlar kompetentsiyaga turli xil ta'riflarga bergan.

-1982 yilda Zemek kompetentsiyani aniqlash bo'yicha tadqiqot o'tkazdi. U malaka nima ekanligini sinchikovlik bilan baholash uchun trening sohasidagi bir nechta

mutaxassislar bilan suhbatlashdi. Suhbatlardan so'ng u shunday xulosaga keldi: "Komplektlikni nima qilish haqida aniq va noyob kelishuv mavjud emas".

-Arzesh kompetentlik modeli (2018): "Kompetentlik – bu shaxs faoliyatini samarali bajarishga olib keladigan bilim, qobiliyat, ko'nikma, tajriba va xatti-harakatlar qatoridir. Qobiliyatni o'lchash mumkin va uni o'qitish orqali rivojlantirish mumkin. U kichikroq me'zonlarga ham ajratiladi"[2].

L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda "predmet haqidagi bilimlar, o'qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko'nikma va malakasi, shuningdek o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg'un birlashishini tushungan"[3].

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilim-lardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat hamda iqtidorni namoyon eta olish "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxas-sisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro muno-sabatlarda yangi yechim topishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayon-larda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi[4].

Zamonaviy jamiyat yoshlari uchun turli kompetentlik xususiyatlariga ega bo'lish talab etilayotgan bugungi jarayonda, avvalo, ma'naviy-axloqiy kompetentlik tushunchasi mohiyatini anglash hamda ushbu kompetentlik

sifatlarini o'zida aks ettirish global muhit yoshlari uchun muhim sanaladi.


Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'gan individlar ma'naviya-tining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbi- yada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi[5].

Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun qoidalar majmuidir. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash[6].

Hozirgi zamonda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini metodikasini nazariy asoslashda mazmun mohiyatiga etibor qaratish tushunchalarining nisbati yo'nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning ichida ko'proq yo'nalishi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining ahloqiy sifat kompetentsiyalari ularning kasbiy faoliyati davomida namoyon

bo'ladigan axloqiy fazilatlar, qadriyatlar va tamoyillar majmuasidir. Bu kompetentsiyalar (1-rasm).



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining ahloqiy sifat kompetentsiyalari

1. Shaxsiy fazilatlar:

* Halollik va adolat: Rahbar o'z faoliyatida halollik va adolat tamoyillariga sodiq qoladi, barchaga nisbatan xolis va hosiyaqli munosabatda bo'ladi.

* Mas'uliyatli va prinsipial: Rahbar o'z qarorlari va harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, qiyin vaziyatlarda ham o'z

prinsiplariga sodiq qoladi.

* Mehr-oqibatli va samimiy: Rahbar bolalarga, ota-onalarga va hamkasblariga nisbatan mehr-oqibatli va samimiy munosabatda bo'ladi, ularning ehtiyojlarini tushunadi va qo'llab-quvvatlaydi.

* Kamtarlik va xushmuomalalik: Rahbar o'zining bilimi va tajribasini boshqalarga ko'z-

ko'z qilmaydi, hammaga xushmuomalalik bilan muomala qiladi.

* O'z ustida ishlashga intilish: Rahbar o'zining kamchiliklarini bartaraf etish va ijobiy fazilatlarini yanada rivojlantirish ustida doimiy ishlaydi.

2. Kasbiy faoliyatga oid kompetentsiyalar:

* Pedagogik etika va madaniyat: Rahbar pedagogik etika va madaniyatga rioya qiladi, o'zining xatti-harakati va so'zlari bilan bolalarga ijobiy o'rnak bo'ladi.

* Jamoada sog'lom muhitni yaratish: Rahbar jamoada o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan sog'lom muhitni yaratadi.

* Konfliktologiya: Rahbar nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish yo'llarini biladi va qo'llay oladi.

* Stressga chidamlilik: Rahbar stressli vaziyatlarda o'zini tuta oladi va samarali qarorlar qabul qiladi.

* Axborotlar bilan ishlash: Rahbar axborotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan

samarali foydalana oladi.

3. Ijtimoiy kompetentsiyalar:

* Ota-onalar bilan hamkorlik: Rahbar ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi, ularning fikrlarini tinglaydi va birgalikda tarbiya masalalarini hal qiladi.

* Ijtimoiy faollik: Rahbar jamiyat hayotida faol ishtirok etadi, o'zining bilim va tajribasini boshqalar bilan baham ko'radi.

* Vatanga muhabbat va sadoqat: Rahbar o'z Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalangan, milliy qadriyatlarni hurmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining yuqorida sanab o'tilgan ahloqiy sifat kompetentsiyalarga ega bo'lishi ularga jamoani samarali boshqarish, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va jamiyatimizda munosib avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turdiyev N. Sh, Asadov Yu.M, Akbarova S.N, Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. -T.:T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institute, 2015. 160-b
2. Maaleki, Ali (9 April 2018). The ARZESH Competency Model : Appraisal & Development Manager 's Competency Model. Lambert Academic Publishing. p. 18. ISBN 9786138389668.
3. Mitina L.M (2004). Психология труда и профессионального развития учителя. - М.: Академия. - 320 с.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. / Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015. – 120 b.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-o-qituvchilarini-kasbiy-kompetentligini-rivojlantirishning-pedagogik-shart-sharoitlari/viewer>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarda-ma-naviy-axloqiy-tarbiya/viewer>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Axloq>.



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.5)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 5

Published: 24.08.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF



Nigmatova Mo'tabarxon Xusanovna

Qo'qon universiteti

Ta'lim muassasalarining

boshqaruvi yo'nalishi magistranti

Uzbekistan

TANQIDIY FIKRLASH TUSHUNCHASI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya: Tanqidiy fikrlash zamonaviy dunyoda, xususan, ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy qobiliyatdir. Tanqidiy fikrlash qobiliyati odamlarga ma'lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilar, o'qituvchilar va rahbarlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uni ta'lim muassasalarida rivojlantirish uchun zarur bo'lgan didaktik shart-sharoitlar o'rganiladi. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasi va uni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari yoritib berilgan

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash tushunchasi va uni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, izlanish madaniyatini tarbiyalash, tanqidiy fikrlashni o'quv dasturi bo'yicha integratsiyalash, faol ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini taklif qilish, shakllantiruvchi baholash amaliyotlarini amalga oshirish

Abstract: Critical thinking is a key skill needed to succeed in the modern world, particularly in education. Critical thinking skills enable people to analyze information, evaluate evidence, and make informed decisions. Developing critical thinking skills in educational institutions is also important for students, teachers and leaders. The concept of critical thinking and didactic conditions necessary for its development in educational institutions are studied. This article describes the concept of critical thinking and didactic conditions for its development

Key words: the concept of critical thinking and didactic conditions for its development, education of research culture, integration of critical thinking in the curriculum, provision of active learning opportunities, offer of professional development of pedagogues, implementation of formative assessment practices increase

Аннотация: Критическое мышление — ключевой навык, необходимый для достижения успеха в современном мире, особенно в сфере образования. Навыки критического мышления позволяют людям анализировать информацию, оценивать доказательства и принимать обоснованные решения. Развитие навыков критического мышления в образовательных учреждениях также важно для студентов, преподавателей и руководителей. Изучено понятие критического мышления и дидактические условия, необходимые для его развития в образовательных учреждениях. В данной статье описано понятие критического мышления и дидактические условия его развития.

Ключевые слова: концепция критического мышления и дидактические условия его развития, воспитание исследовательской культуры, интеграция критического мышления в учебную программу, обеспечение возможностей активного обучения, предложение профессионального развития педагогов, внедрение практик формативного оценивания.

Language: Uzbek

Citation: Mutabarkhan, N. (2024). THE CONCEPT OF CRITICAL THINKING AND THE DIDACTIC CONDITIONS OF ITS DEVELOPMENT. Universal International Scientific Journal, 1(5), 32–36. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1087>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13692116>

Tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy dunyoda ta'lim jarayonining asosiy talabidir. Bu mahorat chegaradan tashqarida fikr yurita oladigan, tezkor harakat qila oladigan, tahlil qila oladigan, muammolarni oldindan ko'ra oladigan va to'g'ri qaror qabul qila oladigan, mehnat bozorida talabga ega bo'lgan boshqaruv kadrlarini tayyorlash uchun zarurdir.

Tanqidiy fikrlash— bu yosh mutaxassisga adaptatsiya jarayonida taklif qilingan nuqtai nazar yoki xulq-atvor modeli to'g'risida qat'iy qaror chiqarishga imkon beradigan maxsus faoliyat turi.

"Tanqidiy fikrlash" - bu ma'lum bir pedagogik yondashuvning belgisi bo'lib, matnga, tanqidiy munosabat asosidagi pedagogik texnika sifatida o'rganila boshlangan.

"Tanqidiy fikrlash" - yangicha qarash, bu texnologiya bilishning yangi usulini rivojlantirishni ta'minlaydi.

"Tanqidiy fikrlash" texnologiyasi asosida tashkil etilgan treninglar yosh mutaxassislarni o'zlarini savol berishga undaydi va javob izlashni faollashtiradi.

Shunday qilib, "Tanqidiy fikrlash" bu shaxsga taklif qilingan nuqtai nazar yoki xulq-atvor modeli to'g'risida qat'iy qaror chiqarishga imkon beradigan maxsus faoliyat turi.

"Tanqidiy fikrlash"ning maqsadi mutaxassislarga adaptatsiya davridan keyingi mehnat faoliyatida zarur bo'ladigan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat (asosli qarorlar qabul qilish, ma'lumot bilan ishlash, asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajratib ko'rsatish, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati).

"Tanqidiy fikrlash" texnologiyasi mutaxassisning intellektual va hissiy faoliyatini faollashtirib, shaxsiyatini mehnat jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.[1]

Zamonaviy adabiyotda tanqidiy fikrlash fenomenining ko'plab ta'riflari mavjud [2], ular ikkita yondashuv doirasida tuzilgan: falsafiy va kognitiv-psixologik. Falsafiy yondashuv an'anaviy ravishda Sokrat, Platon, Aristotel asarlaridan boshlab, zamonaviy an'anada - Metyu Lipman va Richard Polning asarlaridan boshlab rivojlangan. Falsafiy yondashuv markazida ma'lum xususiyatlar to'plamiga ega bo'lgan gipotetik tanqidiy fikrlovchi turadi, ammo tanqidiy fikrlovchi amalga oshirishga

qodir bo'lgan xatti-harakatlar yoki xatti-harakatlar modeli yo'q[3]. Shunday qilib, falsafiy yondashuv bizga idealni taklif qiladi. ideal sharoitlarda tanqidiy fikrlovchi[4]. Sternberg g'oyasini rivojlantirar ekan, Pol tanqidiy fikrlashni "tafakkurni takomillashtirish" kontekstida ko'rib chiqadi [5].

Bixevioristik an'analar doirasidagi kognitiv-psixologik yondashuv odamlarni eksperimental paradigmadagi ko'rib chiqadi, ularning fikrlash va real sharoitlarda qaror qabul qilish qobiliyatini o'rganadi [6].

Kognitiv psixologiyada tanqidiy fikrlash xulq-atvor, harakatlar turlari, tanqidiy fikrlovchi bajaradigan yoki bajarishga qodir bo'lgan ko'nikmalar yoki protseduralar ro'yxati bilan belgilanadi[7].

Shunday qilib, ikkala yondashuv ham tanqidiy fikrlash kontseptsiyasining ko'plab mualliflik talqinlari uchun asos yaratdi. Norrisning ta'kidlashicha, tanqidiy fikrlash, oqilona nuqtai nazardan, nimaga ishonish yoki ishonmaslikni hal qiladi [8].

Pol tanqidiy fikrlashni olimning o'z fikrlash jarayonining borishini boshqarish qobiliyati bilan bog'ladi [9]. Xarris va Xodjes tanqidiy fikrlashni matn sifatini o'rganish va tahlil qilish orqali uning qiymatini yoki ta'sirini tanqidiy baholash bilan solishtirdi [10]. Maykl Skriven (Garvard universiteti professori) tanqidiy fikrlashni o'rganishning eng ko'p nashr etilgan muallifi sifatida zamonaviy voqelikka eng mos keladigan ta'rifni taklif qildi: "Kuzatuvlarni, aloqalarni, ma'lumotlarni mohirona talqin qilish va baholash va aniq dalillarni ilgari surish qobiliyati. keyingi fikrlar va harakatlarga tegishli" [11].

Tanqidiy fikrlash ko'p qirrali mahorat bo'lib, u asosli mulohazalar va qarorlarni shakllantirish

uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va sintez qilishni o'z ichiga oladi. Bu shunchaki faktlarni yodlash yoki ma'lumotni nominal qiymatda qabul qilishdan tashqariga chiqadi; Buning o'rniga, tanqidiy fikrlash odamlardan taxminlarni so'roq qilishni, bir nechta nuqtai nazarni ko'rib chiqishni va murakkab muammolarga mantiqiy fikrlashni qo'llashni talab qiladi. Tanqidiy fikrlashning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tahlil: Tanqidiy fikrlovchilar murakkab ma'lumotlarni uning tarkibiy qismlariga bo'lishlari, munosabatlarni aniqlashlari va dalillarga asoslangan mantiqiy xulosalar chiqarishlari mumkin.

2. Baholash: Tanqidiy fikrlovchilar dalil yoki pozitsiyaning mustahkamligini aniqlash uchun ma'lumotlar, dalillar va manbalarning ishonchliligi, dolzarbligi va asoslilikini baholaydilar.

3. Xulosa: Tanqidiy fikrlovchilar asosli xulosalar chiqaradilar va izchil dalillar yoki yechimlarni shakllantirish uchun g'oyalar, tushunchalar va dalillar o'rtasida mantiqiy aloqalar o'rnatadilar.

4. Muammolarni hal qilish: Tanqidiy fikrlovchilar muammolarni aniqlash, ijodiy yechimlarni ishlab chiqish va turli kontekstlarda asosli qarorlar qabul qilish uchun o'zlarining analitik qobiliyatlari va mantiqiy fikrlashlarini qo'llaydilar.

Ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari: Ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish o'qitish strategiyalari, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va baholash amaliyotlarini o'zida mujassamlashtirgan maqsadli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida talabalar, o'qituvchilar va rahbarlar o'rtasida

tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bir nechta didaktik shartlar muhim:

1. Izlanish madaniyatini tarbiyalash: Ta'lim muassasalari izlanish, qiziquvchanlik va intellektual faollikni qadrlaydigan madaniyatni yaratishi kerak. Talabalarni savollar berishga, taxminlarga qarshi chiqishga va turli nuqtai nazarlarni o'rganishga undash tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi.

2. Tanqidiy fikrlashni o'quv dasturi bo'yicha integratsiyalash: Tanqidiy fikrlash o'quv dasturining barcha jabhalarida, fanlar va sinflar bo'yicha integratsiyalashgan bo'lishi kerak. Rahbarlar, o'qituvchilar birlamchi manbalarni tahlil qilish, argumentlarni baholash va haqiqiy muammolarni hal qilish kabi tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi tadbirlar, topshiriqlar va baholashlarni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Faol ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash: muammoli ta'lim, hamkorlikdagi loyihalar va tajriba faoliyati kabi faol ta'lim usullari o'quvchilarni tanqidiy fikrlash qobiliyatini talab qiluvchi amaliy, so'rovga asoslangan vazifalarni bajarishga jalb qiladi. Bu imkoniyatlar o'quvchilarga olgan bilimlarini qo'llash, ma'lumotlarni tahlil qilish va murakkab masalalar yechimini ishlab chiqish imkonini beradi.

4. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishini taklif qilish: O'quvchilarda tanqidiy fikrlash

ko'nikmalarini rivojlantirishda rahbarlar, o'qituvchilar hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Ta'lim muassasalari rahbarlar va o'qituvchilarning o'zlarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishlari va o'qitishga samarali pedagogik strategiyalarni kiritishlari uchun doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etishlari kerak.

5. Shakllantiruvchi baholash amaliyotlarini amalga oshirish: Fikr-mulohaza, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash kabi formativ baholash amaliyotlari o'quvchilarga o'z fikrlash jarayonlari haqida fikr yuritish, takomillashtirilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash va vaqt o'tishi bilan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish uchun qimmatli imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tanqidiy fikrlash kontseptsiyasi ta'lim va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun muhim bo'lib, shaxslardan tahliliy, baholash va ijodiy fikrlash jarayonlarida ishtirok etishni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi didaktik shart-sharoitlarni o'rnatish orqali o'quvchilar, o'qituvchilar va rahbarlar murakkab va tez o'zgarib borayotgan dunyoda tanqidiy fikrlash, muammolarni samarali hal etish, ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini tarbiyalashlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шагусупова А. А., Хайдарова Р. А. Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования //Бюллетень науки и практики. – 2019. – Т. 5. – №. 6.
2. Petress, K. (2004). Critical thinking: An extended definition. *Education*, 124(3), 461-466.
3. Lewis, A., & Smith, D. (1993). Defining higher order thinking. *Theory into Practice*, 32(3), 131-137.
4. Sternberg, R. J. (1986). *Critical thinking: Its nature, measurement, and improvement*. National Institute of Education. Retrieved from <http://eric.ed.gov/PDFS/ED272882.pdf>.
5. Paulson, E. (2011). Group communication and critical thinking competence development using a realitybased project. *Business Communication Quarterly*, 74(4), 399-411. doi:10.1177/1080569911424484
6. Sternberg, R. J. (1986). *Critical thinking: Its nature, measurement, and improvement*. National Institute of Education. Retrieved from <http://eric.ed.gov/PDFS/ED272882.pdf>.

7. Lewis, A., & Smith, D. (1993). Defining higher order thinking. *Theory into Practice*, 32(3), 131–137.
8. Norris, S. P. (1985). Synthesis of research on critical thinking. *Educational leadership*, 42(8), 40-45.
14. Paul, R. W. (1992). Critical thinking: What, why, and how? *New Directions for Community Colleges*, 1992(77), 3–24.
9. Paul, R. W. (1992). Critical thinking: What, why, and how? *New Directions for Community Colleges*, 1992(77), 3–24.
10. Harris, T., & Hodges, R. (Eds.). (1995). *The Literacy Dictionary*, 48. Newark, DE: International Reading Association.
11. Scriven, Michael (1997). «The methodology of evaluation». In Stake, R. E. *Curriculum evaluation*. Chicago: Rand McNally. American Educational Research Association (monograph series on evaluation, no).



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.5)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 5

Published: 24.08.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF



Abduvaxopova Mahliyohon Azizillo qizi

Andijon davlat universiteti
abduvaxopovamahliyo@gmail.com

Uzbekistan

G'O'ZANING G.BARBADENSE L. INGICHKA TOLALI TURINING TURICHI DURAGAY SHAKLLARIDA MORFO-BIOLOGIK BELGILARNING IRSIYLANISHI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada g'o'zaning nafaqat tezpishar, yuqori hosildorlik va tola sifati, kasallik va zararkunandalarga bardoshlilik, balki ekstremal darajadagi yuqori temperatura va suv tanqisligiga bardoshli navlarni yaratishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining va to'qimachilik sanoatining hozirgi zamon talabi, olimlarning oldiga g'o'za navlarini uzliksiz yaxshilab borish kabi yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu borada, qimmatli xo'jalik belgilarning ahamiyati katta. Qolaversa, qimmatli xo'jalik belgilar asosan miqdoriy belgilardir.

Kalit so'zlar: G.barbadense L, Marvarid, Iolatan, Surxon-14, Termiz, morfo-biologik belgilar, tola sifati, chidamlilik.

Abstract: In this article, great attention is paid to the creation of varieties of cotton not only for quick ripening, high yield and quality of fiber, resistance to diseases and pests, but also for extreme high temperature and water shortage. Today, the current demands of agricultural production and the textile industry put new tasks before scientists, such as continuous improvement of cotton varieties. In this regard, valuable economic signs are of great importance. In addition, economic indicators are mainly quantitative indicators.

Key words: G. barbadense L, Marvarid, Iolatan, Surxon-14, Termiz, morphobiological characteristics of fibers, longevity.

Аннотация: В данной статье большое внимание уделено созданию сортов хлопчатника не только по быстро спелости, высокой урожайности и качеству волокна, устойчивости к болезням и вредителям, но и по экстремально высоким температурам и дефициту воды. Сегодня современные потребности сельскохозяйственного производства и текстильной промышленности ставят перед учеными новые задачи, такие как постоянное улучшение сортов хлопка. В связи с этим большое значение имеют ценные

экономические признаки. Кроме того, экономические показатели являются в основном количественными показателями.

Ключевые слова: G. barbadense L, Марварид, Иолатан, Сурхон-14, Термиз, морфобиологические характеристики качество волокна, устойчивость.

Language: Uzbek

Citation: Abduvakhopova, M. (2024). INHERITANCE OF MORPHO-BIOLOGICAL CHARACTERS IN HYBRID FORMS OF G. BARBADENSE L. THIN FIBER TYPE OF COTTON. Universal International Scientific Journal, 1(5), 37–43. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1088>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13706930>

Ingichka tolali paxta yetishtirishni samarali tashkil qilish, yangi navlarni ko'paytirish va rag'batlantirish mexanizmini joriy etish" borasida, bir qator hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda ingichka tolali g'o'zaning tola sifati yuqori bo'lgan, kasallik va zararkunandalarga chidamli, tezpishar, serhosil navlarini yaratish, ularning ekin maydonlarini kengaytirish, yangi va istiqbolli navlari urug'larini ko'paytirish hamda yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqishni rag'batlantirish mexanizmini joriy etish maqsadida vazifalar belgilangan.

G'o'za bargi barg shapolog'i, barg bandi va ikkita barg yonligidan iborat. Barg shapolog'i g'o'zaning shakli va turiga qarab yaxlit yoki bo'laklarga bo'lingan bo'lishi mumkin. Dastlabki ikki-uch barg doimo yaxlit, keyingilari esa bo'laklarga bo'lingan bo'ladi. Barg shapolog'i o'simlikning tur, naviga qarab har xil kattalikda 4-400 sm² gacha bo'lishi mumkin. Bargning orqa tomonidagi 1-3-5 ta tomirida bittadan nektarlik (shiradon) bo'ladi. Barglar yashil, och yashil, to'q tusda tovlanadi,

tuklar bir yoki ikki yarusli bo'ladi, tuksiz ham bo'lishi mumkin. O'rta tolali g'o'zalarda bir tupdagi barg sathining yakuni avgust oyida 2,5-6,4 ming sm² uzun tolali g'o'zalarda esa 5,1-9 ming sm² gacha bo'lishi mumkin.

Pishib yetilgan chigit tuxumsimon yoki nok ko'rinishidadir. Chigit zarodish (murtak) va uni o'rab olgan ikkita po'stdan iborat. Ichki po'st pardasimon, tashqi po'st yog'ochlanib qattiqlashgan bo'ladi. Chigit qobig'ining tashqi tomoni tuklar bilan qoplangan, bu tuklar ancha uzun bo'lib, tola deb ataladi, ba'zilarida uzun tuk bilan birga kalta tolalar bo'lib, uni momiq (linter) deb yuritiladi. Chigitning keng tomoni xalaza, ingichka tomoni mikropil deyiladi. Ekiladigan chigitning bo'yi 12-14 mm, diametri 6-8 mm bo'ladi, bir chigitning massasi o'sish sharoitiga qarab 50-200 mg gacha bo'lishi mumkin. Chigit murtagi ikkita urug'palladan va o'simlikning asosiy organlari boshlang'ichidan iborat bo'ladi. Chigit murtagidagi moy chigit massasining o'rtacha 20-25 % ni tashkil etadi. Chigit qobig'i juda mustahkam bo'lib, qalinligi 0,25 mm ga yetadi. Chigitning rivojlanish sikli 50-60 kun davom etadi va u ikki etapdan iborat

bo'ladi. I-etapi 25-30 kunga teng bo'lib, asosiy massasiga va organlari shakllanishiga erishiladi. II-etapi ham 25-30 kunga teng bo'lib, unda pishish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar sodir bo'ladi. G'o'za qancha ertapishar va o'sish sharoiti qancha qulay bo'lsa, chigit shuncha tez va yaxshi rivojlanadi.

G'o'zaning belgilari har hil genetik tabiatga ega bo'lib, ularning irsiylik qonuniyatlari turlichadir. Ba'zi belgilari bir juft gen nazoratida bo'lib, butunlay yoki chala dominantlikni ta'min etadi. Boshqa belgilar esa bir necha gen nazorati ostida bo'lib, ularning o'zaro ta'siri komplementar yoki epistatik tipda bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda genlarning o'zaro ta'siri polimer tipda bo'ladi. Ma'lumki, g'o'zani miqdoriy belgilariga asosan qimmatli xo'jalik belgilari – tezpisharlik, mahsuldorlik, tola uzunligi, chiqimi, pishiqligi, ingichkaligi, ko'sak og'irligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Ushbu miqdoriy belgilar poligen hisoblanadi ya'ni bir xildagi belgining rivojlanishi bir juft gen bilangina emas, balki bir xilda ta'sir ko'rsatuvchi bir nechta gen bilan ifodalanishidir. F1 ota-ona nav va tizmalarlarning chigit tuki rangi, chigitning tuklanganlik darajasi, chigitning shakli kabi belgilari bo'yicha gibridologik tahlil qilinganda, ushbu belgilar bo'yicha ular bir-biridan farq qilishi kuzatgan. Nav va tizmalar

o'rtasida bunday farqlarning kuzatilishiga asosiy sabab ularning kelib chiqishi, genotipik va geografik jihatdan bir-biridan uzoq bo'lishi, turlararo taqqoslashda keskin farqlar yuzaga kelishi bilan bog'liqligini aniqlagan.

F1 o'simliklarida ekish-shonalash davrining irsiylanishi g'o'za ko'karib chiqqandan to shonalaguncha poya sekin o'sadi, shonalashdan boshlab esa o'sishi tezlashadi. Poyaning o'sish va rivojlanish tezligiga tur va navdan tashqari harorat, yorug'lik, tuproq namligi, oziqa bilan ta'minlanishi, tuproq xili ta'sir ko'rsatadi(1-jadval).

Ingichka tolali g'o'zaning turli navlari agrotexnikasi nav belgilari va ekilayotgan zonalarining tuproq-iqlim sharoitiga bog'liq. O'rta Osiyoda Ingichka tolali g'o'za seleksiyasi bo'yicha ishlar 1920-yillar o'rtalarida boshlandi. 1926-yildan Bayramali (Turkmaniston), 1930-yildan Vaxsh vodiysi (Tojikiston), keyinchalik xozirgi O'zbekiston g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi institutida, Farg'ona seleksiya stansiyasi va boshqa tajriba staniyalarida Misr g'o'zasidan ingichka tolali g'o'za navlarini yetishtirishga oid ishlar olib boriladi. 1930-yil Misrdan Ashmuni, Zagora, Saxel kabi navlarning chigitlari keltirilib, Tojikistonning Vaxsh vodiysida ekildi, biroq ular juda kamhosil bo'lib chiqdi. Shu yili O'zbekistonda ham birinchi marta Ingichka tolali g'o'za ekildi (0,2 ming ga, hosildorlik 9,7

s/ga, yalpi hosil 0,2 ming t).

F1 o'simliklari ekish-gullash davrining irsiylanishi, g'o'za guli ikki jinsli, organlari besh doirada beshtadan bo'lib joylashgan. Tuzilishi-tashqi tomonidan uchta yirik gul yonligi; keyin 5 ta o'zaro birikib ketgan va kosacha hosil qilgan bargdan; kosacha ichida tag tomondan o'zaro birikkan gultoj bargi; gultojidan ichkarida otalik kolonkasi (androsey) bor. Kolonka otalik iplari trubkasidan iborat bo'lib, sirtida juda ko'p mayda otalik changchilar o'rnashgan; gulning qoq o'rtasida onalik (genisey) joylashadi, bu onalik tuguncha, ustuncha va og'izchadan iborat. G'o'za gulidan tashqarida alohida shiradon nektarlik bor (2-jadval).

G'o'zaning belgilari har hil genetik tabiatga ega bo'lib, ularning irsiylik qonuniyatlari turlichadir. Ba'zi belgilari bir juft gen nazoratida bo'lib, butunlay yoki chala dominantlikni ta'min etadi. Boshqa belgilar esa bir necha gen nazorati ostida bo'lib, ularning o'zaro ta'siri komplementar yoki epistatik tipda bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda genlarning o'zaro ta'siri polimer tipda bo'ladi. Ma'lumki, g'o'zani miqdoriy belgilariga asosan qimmatli xo'jalik belgilari – tez pisharlik, mahsuldorlik, tola uzunligi, chiqimi, pishiqligi, ingichkaligi, ko'sak og'irligi va boshqalar shular jumlasidandir.

F1 o'simliklari ekish-gullash davrining irsiylanishi

Mazkur belgi bo'yicha olingan F1 Iolatan x Marvarid x (43,7 kun), Marvarid x Termiz-31 (43,9 kun), Marvarid x Iolatan-14 (44,7 kun), Surxon-14 x Iolatan-14 (44,2 kun) duragaylarda shonalash erta boshlangan. Iolatan-14 x Termiz-31 (45,1 kun), Termiz-31 x Iolatan-14 (45,1 kun), Surxon--14 x Marvarid (45,6 kun), Marvarid x Surxon-14 (46,0 kun), Termiz-31 x Marvarid (46,3 kun), Surxon -14 x Termiz -31 (46,8 kun) o'rtacha ko'rsatgich kuzatildi. Shonalash davri Iolatan -14 x Surxon—14 (49.2 kun), Termiz -31 x Surxon-14 (47,3 kun) duragaylarda uzoq davom etganligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ekishdan to shonalashgacha bo'lgan muddat belgisining irsiylanishida Iolatan-14 x Marvarid va Surxon-14 x Marvarid ($hp = -1.3$), Iolatan-14 x Termiz-31 ($hp = -3.1$), Termiz-31 x Iolatan-14 va Iolatan-14 x Surxon-14 ($hp = -1.4$), Surxon-14 x Iolatan-14 ($hp = -0.9$), Marvarid x Termiz-31 va Termiz-31 x Marvarid ($hp = -1.1$), Marvarid x Surxon-14 va Termiz-31 x Surxon-14 ($hp = -1.5$), Surxon-14 x Termiz-31 ($hp = -3.2$) duragaylarning barchasida salbiy o'ta dominantlik, faqatgina Marvarid x Iolatan-14 ($hp = -0.6$) duragayda esa salbiy oraliq irsiylanish kuzatildi.

Ota-ona shakllari va F₁ duragaylarda ekish-shonalash davrining irsiylanishi

♀ ♂	Иолатан-14	Марварид	Термез-31	Сурхон-14
Иолатан-14	47.2±0.7	43.7±0.5	45.1±0.6	49.2±0.5
Б	4.9	3.8	2.9	3.7
h _p		-1.3	-3.1	-1.5
Гетерозис. %		92.52	95.7	91.8
Марварид	44.7±0.6	44.2±0.4	43.9±0.7	43.0±0.7
Б	4.0	2.9	4.7	2.3
h _p	-0.6		-1.1	-1.5
Гетерозис. %	94.6		85.53	88.9
Термез-31	45.1±0.3	46.3±0.6	46.1±0.7	47.3±0.4
Б	3.0	4.2	4.3	3.4
h _p	-1.4	-1.1		-1.5
Гетерозис. %	92.8	92.8		96.1
Сурхон-14	45.2±0.7	45.6±0.6	46.8±0.6	45.2±0.6
Б	2.5	3.1	2.6	3.1
h _p	-0.9	-1.3	-3.6	
Гетерозис. %	93.4	90.8	96.1	

Eslatma: 1.F₁o‘simliklarida belgining o‘rtacha ko‘rsatkichi. mm; 2.o‘rtachaning og‘ishi – Б; 3. ustunlik darajasi ko‘rsatkichi (h_p); 4. Geterozis %

Bundan chiqdi, barcha duragaylar ota-ona shakllariga nisbatan ertaroq shonalaganligi aniqlandi.

F₁ duragaylarda ekish-gul ochilishi davrining irsiylanishi

Tajriba uchun olingan ota-ona shakllari va F₁ duragaylarning ekish-gul ochilishi davri 3 guruhga bo‘lib, birinchi guruhga o‘simliklarida birinchi gul ochilgan Marvarid (69,9 kun), Termiz-31 (72,2), Iolatan-14 (73,6 kun) bo‘lib, Surxon-14 (74,3) davrni tashkil qildi (3.2-jadval)F₁Iolatan-14 x Marvarid (69,0 kun), Marvarid x Termiz-31 (69,9 kun), Marvarid x Iolatan (70,3 kun), Сурхон-14 x

Марварид (70,1) duragaylarida eng erta gullari ochilganligini o‘rgandik. O‘rtacha ko‘rsatkich Termiz-31 x Iolatan-14 (71,5 kun), Termiz -31 x Marvarid (71,2 kun), Marvarid x Surxon-14 (72,0 kun) kuzatildi. Iolatan-14 x Termiz-31 (73,3 kun), Iolatan-14 x Surxon-14 (73,2 kun), Surxon-14 x Iolatan-14 (74,3 kun), Termiz-31 x Surxon-14 (74,5 kun), Surxon-14 x Termiz-31(74,2 kun) esa eng uzoq muddatda gullari ochilganligi kuzatildi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Surxon-14 navining gul ochilishi davri eng uzoq o‘rtacha 74,3 kuni tashkil qilib, ona sifatida olinganda duragaylarda uzoq muddatlarda gullari ochilganligini aniqland. Natijalarga ko‘ra, ekishdan to gullashgacha bo‘lgan muddat belgisining irsiylanishi Iolatan-14 x Marvarid (hp= -1.3), Termiz-31 x Iolatan-14 (hp= -1.3), Iolatan-14 x Surxon-14 (hp= -4), Surxon-14 x Iolatan-14 (hp= -

2.3), Surxon-14 x Marvarid (hp= -20), Termiz-31 x Surxon-14 (hp= -11.5) duragaylarning barchasida salbiy o‘ta dominantlik, faqatgina Marvarid x Iolatan-14 (hp= -0.7), Iolatan-14 x Termiz-31 (hp= -0.8), Termiz-31 x Marvarid (hp= -0.3), Marvarid x Surxon-14 (hp= -0.6), Surxon-14 x Termiz-31 (hp= -0.9) duragaylarda salbiy to‘liqsiz dominantlik holatlari, Marvarid x Termiz-31 (hp= -1) duragayda esa ota-onaning to‘liq ustunligi kuzatildi.

(2-jadval)

Ota-ona shakllari va F₁ duragaylarda ekish-gul ochilishi davrining irsiylanishi

♀ / ♂	Иолатан-14	Марварид	Термез-31	Сурхон-14
Иолатан-14	73.5±0.6	69.0±0.6	73.3±0.6	73.2±0.7
Б	4.5	4.0	3.5	3.4
h _p		-6.2	-0.8	-4
Гетерозис. %		93.9	96.0	93.5
Марварид	70.3±0.8	69.9±0.6	69.9±0.6	72.0±0.8
Б	5.7	4.2	5.4	4.9
h _p	-0.8		-1	-0.6
Гетерозис. %	95.5		90.9	94.8
Термез-31	71.5±0.9	71.2±0.7	72.1±0.6	74.5±0.8
Б	4.3	4.3	3.9	3.1
h _p	-1.3	-0.3		-11.5
Гетерозис. %	95.4	96.5		95.7
Сурхон-14	74.3±0.7	70.1±0.7	74.2±0.9	74.3±0.6
Б	5.8	3.8	4.6	4.6
h _p	-2.3	-2.0	-0.9	
Гетерозис. %	94.6	96.3	98.5	

Eslatma: 1. F₁ o‘simliklarida belgining o‘rtacha ko‘rsatkichi. mm; 2. o‘rtachaning og‘ishi – Б; 3. ustunlik darajasi ko‘rsatkichi (hp); 4. Geterozis %

Demak, duragaylarda o‘simliklarning barchasi ota-ona shakllariga nisbatan erta gullaganligi aniqlandi. Ayniqsa, geografik jihatdan uzoq bo‘lgan Iolatan-14 x Marvarid (69 kun) duragayining gullari erta ochildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, F₁ o‘simliklarining ekishdan – shonalagungacha va

ekishdan – gullagungacha bo‘lgan davrlari bo‘yicha Marvarid navi ota yoki ona sifatida olinganda, eng erta shonalagan o‘simliklar Iolatan-14 x Marvarid, Marvarid x Surxon-14, Marvarid x Termiz-31 duragaylarda hamda eng erta gullagan o‘simliklar geografik jihatdan uzoq bo‘lgan Iolatan-14 x Marvarid (69 kun) duragaylarda kuzatildi.

F₁ o'simliklarining ekish – pishish davri Surxon-14 x Iolatan-14, Surxon-14 x Termiz-31, bo'yicha eng erta ko'saklari ochilgan o'simliklar Iolatan-14 x Surxon-14 duragaylarda aniqlandi. Surxon-14 navi ota yoki ona sifatida olingan

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Simongulyan G., Muhamadxonov S.R., Shafrin A.N. G'o'za genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi. // O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1974. 6-25-b.
2. Xolmurodova G.R., Namazov Sh.E., Boboyev S.G'. G'o'zada tezpisharlik murakkab poligen. //Seleksiya va urug'chilik sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent, 2014, 126-128-b
3. Dusmatova G.A. G'o'zaning G.hirsutum L. va G.barbadense L. turlarining shakllarini duragaylash oldi chigit belgilari ko'rsatkichlarining tahlili. // Ilmiy xabarnoma. Andijon, 2018, №3, 44-47- b.



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.5)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 5

Published: 30.08.2024 <https://universaljurnal.uz>



International indexes

[GOOGLE SCHOLAR](#)
[CROSSREF \(OAK BAZA\)](#)
[ZENODO](#)
[OPEN AIRE](#)
[EUROPUB](#)
[RESEARCHGATE \(OAK BAZA\)](#)
[SJIF](#)

Qosimov Karimjon Zuhriddinovich

Andijon mashinasozlik instituti

“Texnologik mashinalar va jihozlari” kafedrasini professori

<https://orcid.org/0000-0003-4900-1285>

Maxmudov Ikrorxon Rustamxon o‘g‘li

Andijon mashinasozlik instituti

“Texnologik mashinalar va jihozlari” kafedrasini 3-bosqich tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0000-0002-5968-959X>

Sultonov Rasuljon Shahobiddin o‘g‘li

Andijon mashinasozlik instituti

“Texnologik mashinalar va jihozlari” kafedrasini 3-bosqich tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0000-0001-9286-4102>

Isaboyev Toxirjon Mexmonovich

Andijon mashinasozlik instituti

“Texnologik mashinalar va jihozlari” kafedrasini katta o‘qituvchi

<https://orcid.org/0000-0002-6108-8937>

Uzbekistan

ikhrorbek_tm2019@mail.ru

1. Kenjaboyev A.E. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Zamonaviy ta'lim jur. 2020 № 10. 83 bet.
2. Nosirov A. Rahbarning kasbiy kompetentligi va boshqaruv madaniyat ta'lim menejmenti jurnali. 2013 yil №6, 2 bet.
3. M.Ochilov. "Muallim qalb me'mori" Toshkent "O'qituvchi" 2001 yil. 6. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar - ta'lim samaradorligi omili". T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020 yil 56 bet.
4. Родиков, А. С. (2018). Становление и развитие педагогической компетентности руководителя образовательной организации в системе непрерывного образования (Doctoral dissertation, -СПб.: РГПУ им. АИ Герцена, 2018.-42 с).
5. Сторожева, О. И. (2010). Развитие профессиональной компетенции руководителя образовательного учреждения. Образование и наука, (6), 12-22.



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 5

Published: 24.08.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

[GOOGLE SCHOLAR](#)
[CROSSREF \(OAK BAZA\)](#)
[ZENODO](#)
[OPEN AIRE](#)
[EUROPUB](#)
[RESEARCHGATE \(OAK BAZA\)](#)
[SJIF](#)



Ziyavitdinov Zafar Mahmudovich

Qo'qon universiteti

Ta'lim muassasalarining

boshqaruvi yo'nalishi magistranti

Uzbekistan

TA'LIM MUASSASA RAHBARLARI HUQUQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA PRINSIPLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy savodxonlik, ta'lim muassasa rahbarlari huquqiy savodxonligini rivojlantirish mazmuni va prinsiplari, ta'lim qonunchiligini tushunish, mehnat qonunchiligini bilish, risklarni boshqarish va javobgarlik, siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, nizolarni hal qilish va vositachilik haqida keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy savodxonlik, ta'lim muassasa rahbarlari huquqiy savodxonligini rivojlantirish mazmuni va prinsiplari, ta'lim qonunchiligini tushunish, mehnat qonunchiligini bilish, risklarni boshqarish va javobgarlik, siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, nizolarni hal qilish va vositachilik.

Abstract: This article provides a broad overview of legal literacy, the content and principles of legal literacy development for educational institution leaders, understanding education law, knowledge of labor law, risk management and accountability, policy development and implementation, dispute resolution and mediation.

Key words: legal literacy, content and principles of legal literacy development of educational institution leaders, understanding of educational legislation, knowledge of labor legislation, risk management and responsibility, policy development and implementation, conflict resolution and mediation.

Аннотация: В данной статье представлен широкий обзор правовой грамотности, содержания и принципов развития юридической грамотности руководителей образовательных учреждений, понимания законодательства об образовании, знаний трудового законодательства, управления рисками и подотчетности, разработки и реализации политики, разрешения споров и посредничества.

Ключевые слова: правовая грамотность, содержание и принципы развития правовой грамотности руководителей образовательных учреждений, понимание образовательного законодательства, знание

трудового законодательства, управление рисками и ответственность, разработка и реализация политики, разрешение конфликтов и медиация.

Language: Uzbek

Citation: Ziyavitdinov , Z. (2024). CONTENT AND PRINCIPLES OF LEGAL LITERACY DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL INSTITUTION LEADERS. Universal International Scientific Journal, 1(5), 62–67. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1093>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13757368>

Huquqiy savodxonlik paradigmalarining nazariy rivojlanishi va muayyan ta'lim vaziyatlarida huquqiy xatti-harakatlarning tashkiliy shakllari va ilmiy usullarni amaliyotga tadbiq etish; Malaka oshirish tizimida ta'lim muassasa rahbarlarining huquqiy vakolatlarini shakllantirish uchun ushbu shartlar maxsus o'quv kurslarining mazmuni va ilmiy-uslubiy ta'minoti hamda bevosita ta'lim muassasalarida ta'lim muassasa rahbarlar uchun huquqiy amaliyotning tashkiliy shakllarini yaratish mumkin. Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlarida eng asosiy tushunchalar qo'llaniladi. Mazkur tushunchalar ta'lim sohasida obyekt va subyekt faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayonlarga oid tushunchalarni belgilaydi va har bir tushunchaning mazmunini ochib beradi.[1]


BMT mamlakatimizga 2016-yilda "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun taraqqiyot siyosatiga doir tadbirlarni har tomonlama joriy qilish, jadallashtirish va qo'llab-quvvatlash" (MAPS) yondashuvini taklif etgan. Ushbu yondashuvda uchta jadallashtirish sohasi (akselerator) keng islohotlar uchun qamrab olingan. Shu sohalarning birinchisi "Boshqaruv tizimlarining samaradorligi va hisobdorligini oshirish" sanaladi va unda "Samarali boshqaruv barqaror rivojlanishning barcha boshqa maqsadlariga erishishda tarmoqlararo va asosiy katalizatoridir", deya alohida e'tirof etilgan.[2]

Bu holat boshqaruv tizimini takomillashtirish, rahbar (yosh) kadrlarni tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish,

ularning bilim saviyasini yanada yuqori bo'lishi bilan bog'liq shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilmiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha domiy ravishda tadqiqotlar olib borishga zarurat borligidan dalolat beradi.[3]

Rahbar shaxsini o'rganish muammosi kishilik jamiyatining barcha davrlarida muhim masala bo'lib kelgan. Buning asosiy sababi birinchidan, har bir davrdagi ijtimoiy munosabatlar o'ziga xos ravishda ijtimoiy mavqe jihatidan kimningdir yuqori darajada turishini taqozo etgan bo'lsa, ikkinchidan, insonlarning hayot kechirish tarzi, ravnaqi, darajasi, farovonligi, baxtli turmush kechirishi shu yuqori mavqedagi shaxsga, uning turli fazilatlari va xislatlariga bog'liq bo'lganligidir.[4]

Borgan sari murakkablashib borayotgan ta'lim muhitida ta'lim muassasalarini tartibga soluvchi qonunchilik asoslari doimo rivojlanib bormoqda. Ta'lim muassasalari rahbarlari - direktorlar, dekanlar va ma'murlar - talaba huquqlari va xavfsizlik qoidalaridan tortib, mehnat qonunchiligi va institutsional muvofiqlikgacha bo'lgan ko'plab qonuniy majburiyatlarni bajarishlari kerak. Huquqiy tushunchalarni tushunish va huquqiy bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati sifatida belgilangan huquqiy savodxonlik bu rahbarlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish uchun zarur bo'lgan mazmun o'rganilib, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan tamoyillar zarur.



1-rasm Huquqiy savodxonlik mazmuni

1. Ta'lim qonunchiligini tushunish: shaxsiy daxlsizlikka nisbatan chuqur ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri davlat qonunchiligini, sud amaliyotini va ma'muriy siyosatni o'z ichiga olgan ta'lim huquqini mustahkam tushunishdir. Ta'lim muassasalari rahbarlari nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ta'lim to'g'risidagi qonun, oilaning ta'lim huquqlari va shaxsiy hayoti to'g'risidagi qonun kabi qonunlar bilan tanishishlari kerak. Ushbu qonunlarning har biri institutlar faoliyatiga, xususan, talabalar huquqlari, tenglik va
2. Mehnat qonunchiligini bilish: Huquqiy savodxonlik mehnat qonunchiligini, jumladan, xodimlar va ish beruvchilarning huquq va majburiyatlarini ham qamrab olishi kerak. Ta'lim muassasalari rahbarlari mehnat munosabatlari, diskriminatsiyaga qarshi qonunlar va xodimlarni baholash jarayonlarini tushunishlari kerak. Ushbu bilim adolatli va adolatli ish muhitini yaratish va qonuniy standartlarga rioya qilishni ta'minlash uchun zarurdir.

3. Risklarni boshqarish va javobgarlik:

Ta'lim muassasa rahbarlari o'z muassasalari bilan bog'liq potentsial huquqiy xavf va majburiyatlarni aniqlashda mohir bo'lishi kerak. Bu maktab faoliyati kontekstida beparvolik va javobgarlik kabi muammolarni hal qiladigan huquqbuzarlik to'g'risidagi qonunni tushunishni o'z ichiga oladi. Xatarlarni boshqarish strategiyalari bo'yicha treninglar institut rahbarlariga talabalar va xodimlar uchun xavfsizroq muhit yaratishga yordam beradi, shu bilan birga yuridik ta'sirni minimallashtiradi.

4. Siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish:

Huquqiy savodxonlik nafaqat qonunlarni bilish, balki huquqiy standartlarga mos keladigan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ta'lim muassasalari rahbarlari bezorilik, ta'qib qilish va akademik halollik kabi muammolarni hal qiluvchi siyosat loyihalarini ishlab chiqish uchun jihozlanishi kerak. Buning uchun qonunchilik talablari va siyosat ishlab chiqishdagi ilg'or tajribalarni tushunish kerak.

5. Nizolarni hal qilish va vositachilik:

Ta'lim muassasalarida nizolar muqarrar va huquqiy savodxonlik nizolarni hal qilish va vositachilik ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Ta'lim muassasalari rahbarlari muzokaralar olib borish texnikasi va nizolarni samarali hal qilish uchun muqobil nizolarni hal qilish usullari bo'yicha o'qitilishi kerak, ular talabalar, xodimlar yoki ota-onalar o'rtasida yuzaga keladi.

Ta'lim siyosati va qonunchilik bazasi jadal o'zgarib borayotgan bir davrda ta'lim muassasalari rahbarlarining ro'li tobora murakkablashib bormoqda. Rahbarlar nafaqat o'z muassasalarining ilmiy va ma'muriy funktsiyalari uchun mas'uldirlar, balki huquqiy muammolarga to'la landshaftni ham boshqarishlari kerak. Shunday ekan, ta'lim muassasalari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish samarali boshqaruv va qonunlarga rioya qilish uchun zarurdir. Ta'lim muassasalari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish uchun zarur bo'lgan didaktik shart-sharoitlar, asosiy e'tibor pedagogik strategiyalar, o'quv dasturlari va o'quv muhitiga qaratiladi.

Didaktik shart-sharoitlar samarali o'qitish va o'rganishni osonlashtiradigan asosiy elementlarni anglatadi. Huquqiy

savodxonlikni rivojlantirish kontekstida bu shart-sharoitlar ta'lim usullari, mazmunga mosligi, o'quvchilarning faolligi va ta'lim muhitini o'z ichiga olgan bir qator omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu shart-sharoitlarni o'rnatish orqali institutlar o'z rahbarlarining huquqiy bilimlarni o'z vazifalarida tushunish va qo'llash uchun yaxshi jihozlanganligini ta'minlashi mumkin.

1. O'quv dasturlarini loyihalash:

Yaxshi tuzilgan o'quv dasturi huquqiy savodxonlikni rivojlantirishning asosiy didaktik shartidir. O'quv dasturi keng qamrovli bo'lib, ta'lim huquqi, mehnat qonunchiligi, risklarni boshqarish va siyosatni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini qamrab olishi kerak. Shuningdek, u ta'lim muassasa rahbarlari duch keladigan muammolarni aks ettiruvchi amaliy tadqiqotlar va real senariylarni o'z ichiga olishi kerak. Amaliy vaziyatlarga bunday aloqadorlik faollikni kuchaytiradi va o'quvchilarga o'zlarining huquqiy bilimlarining darhol qo'llanilishini ko'rish imkonini beradi.

2. Pedagogik strategiyalar

O'quv tajribasini shakllantirishda pedagogik strategiyalarni tanlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Huquqiy

savodxonlikni rivojlantirishda muammoli ta'lim va hamkorlikdagi guruhlarda ishlash kabi faol ta'lim usullari ayniqsa samarali bo'lishi mumkin. Ta'lim muassasalari rahbarlarini tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirib, haqiqiy hayotdagi huquqiy bilimlar bilan shug'ullanishga undaydi. Hamkorlikdagi o'rganish muloqot va fikr almashishni rag'batlantiradi, ishtirokchilarga bir-birining tajribasi va nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi.

3. O'quv muhiti

Huquqiy savodxonlikni rivojlantirishda o'quv muhiti katta ro'l o'ynaydi. Qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhit huquqiy tushunchalarni ochiq muhokama qilish va o'rganishga yordam beradi. Ta'lim muassasalarida muassasa rahbarlari o'zlarini qulay his qiladigan savollar berish va huquqiy masalalar bo'yicha tushuntirishlar izlashlari mumkin bo'lgan tadqiqot madaniyatini shakllantirishlari kerak. Bunga ishtirokchilar huquqiy masalalar bo'yicha o'z tashvishlari va noaniqliklarini bildirishlari mumkin bo'lgan muloqot uchun xavfsiz joylar yaratish orqali erishish mumkin.

Bu hamkorlikdagi yondashuv nafaqat huquqiy savodxonlikni oshiradi, balki ta'lim muassasalarida professional hamjamiyatni mustahkamlaydi.

4. Baholash va fikr-mulohazalar

Samarali baholash va qayta aloqa mexanizmlari huquqiy savodxonlikni rivojlantirishning muhim didaktik shartidir.

Baholar o'quv maqsadlariga mos kelishi va huquqiy bilimlarni nazariy tushunish va amaliy qo'llashni baholashga mo'ljallangan

bo'lishi kerak. Shakllantiruvchi baholashlar, masalan, aks ettiruvchi jurnallar yoki vaziyatni tahlil qilish, o'quvchilarga doimiy fikr-mulohazalarni taqdim etishi va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi.

5. Fanlararo hamkorlik

Huquqiy savodxonlik vakuumda mavjud emas; u turli sohalar, jumladan, ta'lim, boshqaruv va axloq bilan kesishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ботиров Хамид Ҳакимович, "Умумий ўрта таълим муассасалари бошқарувида ҳуқуқий масалалар"- Ўқув қўлланма- Тошкент, 9-бет
2. O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun taraqqiyot siyosatiga doir tadbirlarni har tomonlama joriy qilish, jadallashtirish va qo'llab-quvvatlash (MAPS) hisoboti (2018-yil 19-oktabr) [Elektron resurs]
3. Oybek HAYITOV. RAHBAR PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI (oliy ta'lim muassasalari o'rta bo'g'in rahbarlari misolida). "UMID DESIGN" Toshkent – 2021
4. Oybek HAYITOV. RAHBAR PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI (oliy ta'lim muassasalari o'rta bo'g'in rahbarlari misolida). "UMID DESIGN" Toshkent – 2021



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.5281/zenodo.13766376)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 5

Published: 31.08.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF



Baxriddinova Muazzamxon Fazlitdin qizi

Andijon davlat universiteti o'zbek adabiyoti
ixtisosligi tayanch doktoranti

Uzbekistan

HABIB SIDDIQ- HAJV USTASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada andijonlik hajvchi yozuvchi Habib Siddiq hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilgan. Yozuvchi hikoyalari tahlil qilingan, hikoyalardagi satira va yumor va folklorizmga alohida to'xtalangan.

Kalit so'zlar: hajvchilik hajviya, satira, yumor, folklorizm, maqol matal.

Abstract: This article provides information about the life and work of the comic writer Habib Siddiq from Andijan. The writer's stories are analyzed, satire and humor in the stories and folklorism are emphasized.

Key words: comedy, satire, humor, folklorism, proverb.

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизни и творчестве андижанского писателя-комика Хабиба Сиддика. Анализируются рассказы писателя, подчеркивается сатира и юмор в рассказах, фольклоризм.

Ключевые слова: комедия, сатира, юмор, фольклоризм, пословица.

Language: Uzbek

Citation: Baxriddinova , M. HABIB SIDDIQ- MASTER OF COMIC. Universal International Scientific Journal, 68–74. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1094>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13766376>

O'zbek hajvchiligi o'zining juda qadimiy va boy tarixiga, ildiziga ega. Ustozlari kabi Habib Siddiq ham uning rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Adib tomonidan yaratilgan

yumorning birinchi manbasi shubhasiz hayot va undagi odamlardir. U kulgini, kulgili holatlarni hayotning o'zidan olib, ularning o'ziga ulashadi va har bir insonni mushohadaga undaydi. Dastlab uning hajviy asarlarini o'qiganimda shunchaki yengil kulasiz, , keyin esa yozuvchi

bu asarlarni yig'lab yozmadimikan degan savol paydo bo'ladi va keyingi o'qishda chuqur o'yga tolasiz. Haqiqatan agar inson bir narsani chin ko'ngildan xohlab bajarsa, bu ishni albatta uddalaydi. Adib o'z orzusiga qaysidir ma'noda erisha oldi. Sababi kitobxonning borgan sari ma'naviyati yuksalib, yozuvchining asl fikrini tushunib, tahlil qilishga urinyapti. Bu ham qaysidir ma'noda yozuvchining bir yutug'i hisoblanadi. Qozoqboy Yo'ldoshev aytganlaridek, baribir badiiy tahlilning oxiriga yetib bo'lmaydi. Shuning uchun uning yumori hayotga yaqinligi bilan boshqa hajviy asarlardan ajralib turadi. Uning yumorida voqelikka kulgili va ijobiy munosabati yotadi. Adib kulgi orqali yaxshi kayfiyat, o'z kuch-qudratiga, haqiqat g'alaba qozonishiga ishonch ruhini baxsh etib keldi. Habib Siddiq kulgusida yetakchi xususiyat shundan iboratki, asosiy kulgi halol, pokiza kishilarni ulug'lash, hayotning bebaho ne'mat ekanligini tushunib yetish, yashash quvonchini uyg'otib, insonlarga, yaqinlarga muhabbat, atrofdagilarga xush kayfiyat bag'ishlashga, ularda insoniylik tuyg'usini alangalatishga hayotimizda uchraydigan razil kishilarni esa fosh etishga qaratilganligidir. Habib Siddiqning ko'p yillar davomida hajvchilikda to'plagan ijodiy tajribalari asarlari bag'riga singib ketgan. Xalqchil komediyalari esa kishilar qalbida abadiy saqlanib qoladi. Sababi ularda tasvirlangan obrazlar ayni hayotimizda ham bor. Va ularda odamlar tabiatidagi ayrim qusurlar bor: qalloblar, yengil hayot kechirish yo'liga o'tgan kimsalar, oilaviy munosabatlarda hamon saqlanib kelinayotgan, taraqqiyotimizga zid tushayotgan qoloq udumlar qattiq tanqid qilinadi. Biroq bu asarlardagi yetakchi narsa-kulgi, halol, pokiza odamlarni, jamiyat hayot tarzining ulug'ligini bebaholigini ulug'lovchi

kulgi. Odamga odamning mehrini tovlantiradigan, ularni yaqinlashtiradigan, insonlardagi hamdardlik tuyg'usini junbushga keltiradigan hayotbaxsh kulgi bor uning asarlarida. Habib Siddiq asarlarining qahramonlari juda tabiiy va oddiy odamlar, ularning ishlari ham, gap-so'zlari ham, o'zlarini tutishi, orzu-umidlari ham tabiiy. Ular tabiiy odamlardek hayotda nimalargadir erishsa quvonishadi, xato qilishsa, adashishsa, to'siqlarga duch kelib, muvaffaqiyatsizlikka uchrashsa, qayg'urishadi, iztirob chekishadi. Har holda bu odamlarning quvonchlari ham, dardlari ham g'oyatda tabiiy va ishonarli. Bu hikoyalarni jozibador qilgan omillardan biri muallif o'z qahramonlarini dildan sevishi, ularning go'zalligi, ma'naviy kamoloti, ruhiy yuksakligi qarshisida sajda qilishga tayyor turishi va bu tuyg'ularni hikoyalarda shu qadar samimiy ifodalaganki, ular o'quvchini ham hayajonga soladi, o'quvchi ham o'zi sezmaganda holda bu sodda, ochiqko'ngil, go'zal odamlarni sevib qoladi.

Insoniyat yaralibdiki hamisha adabiyotga ehtiyoj sezgan, adabiyot bilan hamnafas yashab kelgan. Zero, turmushning tashvishlaridan ortib ma'naviy ozuqa olish har bir inson uchun kerak edi. Ayniqsa hajviy asarlar doimo diqqat markazida bo'lgan. Chunki insonlar hajviy asarlarni o'qib, turmush tashvishlarini biroz unutishgan, ko'ngillari orom olgan. Shuning uchun ham, hajviy asarlar adabiyotimizda alohida ahamiyatga ega va salmoqli o'rinni egallaydi. Bizning o'zbek adabiyotimizda ham bugungi kungacha ko'plab hajviy asarlar yaratilgan. Abdulla Qahhor, Said Ahmad, G'afur G'ulom, Ne'mat Aminov ana shunday hajviy asarlarning ustalari hisoblanadi. Bu yozuvchilar orasida andijonlik Habib Siddiq ham o'z o'rniga ega ijodkor hisoblanadi. Habib

Siddiq asarlarining salmoqli qismini hajviy asarlar tashkil etadi. Yozuvchi asarlariga nazar tashlar ekanmiz ularning deyarli barchasida hajv elementlarini ko'rishimiz mumkin. Adib aytmoqchi bo'lgan fikrlarini o'quvchiga hajv orqali yetkizadi.

Habib Siddiqning hajviy hikoyalarini o'qib, yozuvchining bayon uslubida zo'riqish, chiranishni ko'rmaysiz, tasvir ham, talqin ham jimjimadorlikdan xoli ibratli hikoyatni tinglayotgandek voqealarni ko'rib, o'zingiz ham uning ishtirokchisiga aylanasiz. Dunyo faqat betakalluf, loqayd kimsalardan iborat emas, aslida yaxshi insonlar bisyor, degan ezgu tuyg'u ko'nlingizga yorug'lik olib kiradi. Muallif iste'dod nuri bilan sirli, sinoatli hayotning biz har kuni ko'radigan, biroq ilg'amaydigan jihatlarini badiiy tahlil etib, ta'sirchan yoritilganiga qoyil qolasiz.

Adibning har bir hikoyasi sizda katta qiziqish uyg'otadi, ularni o'qish davomida yuzingizga tabassum yuguradi, mazza qilib kulasiz, shuning barobarida chuqur o'yga tolasiz. Habib Siddiq hikoyalari hoh yumoristik bo'lsin, hoh satirik, ularning tag zamirida jiddiy mavzu yotadi. Adib hikoyalari yonimizdagi odamlarni tasvirlaydi, hikoyalarning qahramonlari jamiyatimizdagi oddiy siz-u bizga o'xshash odamlar, siz-u bizdek yashaydi, harakat qiladi. Faqat ularning ayrimlari sodda, mehribon, ishonuvchan ayrimlari esa qilvirtabiat, har doim o'zini o'ylaydigan, o'z manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan kimsalar. Adib hikoyalari orqali bizga ko'zgu tutayotgandek bo'ladi va bu ishni hajv vositasida bajaradi. Uning satirik va yumoristik hikoyalari o'zbek hajvchiligining eng sara namunalari sirasiga kiradi va kitobxonlarga ma'naviy ozuqa berishdan to'xtamaydi. Habib Siddiq asarlaridagi

sadoqat, mehr, odamgarchilik, ishonch, e'tiqod singari ma'naviy qadriyatlar qahramonlar qon-qoniga singib ketgan. Adib o'z asarlarida inson ruhiyatidagi tovlanishlarni ko'rsatib berishga katta e'tibor qaratadi va aynan shu e'tibor asarning zavq bilan o'qilishini ta'minlaydi.

Samimiy tasvirlangan obrazlar Habib Siddiq hikoyalari o'ziga xos, betakror tarovatini ta'minlaydi. Ularni bugungi kun kitobxonlari uchun qadrliladi.

Adibning hikoyalari e'tibor qaratsak, aksar hikoyalar kichik hajmli, yumoristik yoki satirik xarakterda. Yozuvchi qalbini o'rtayotgan qaysidir muammoni yumor yoki satira vositasida yoritadi. Hikoyalar mavzu jihatidan xilma-xil, qahramonlar turfa. Yozuvchining qahramonlari goh oddiy, sodda, halol, mehnatkash insonlar bo'lsa, gohida birovning haqqidan qo'rqmaydigan poraxo'r amaldorlar, ba'zida soxta shoirlar, ba'zan o'qituvchilar va hokazo. Yozuvchi qaysi mavzuda qalam tebratmasin, baridan maqsad bitta: jamiyatdagi qaysidir kamchilikni ko'rsatish, biror illatni qoralash- bir so'z bilan aytganda, insonlarga ezgulik ulashish.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yozuvchi ham satirik ham yumoristik yo'nalishda hajviy hikoyalar yaratgan.

Adabiyotshunosligimizda hajviy asarlar katta ahamiyat kasb etadi. Sababi, u qaysidir ma'noda insonlarni tarbiyalaydi. Chunki adabiyot qaysi yo'ldan bormasin odamzodga ta'lim va tarbiya beradi. Insonlar xarakteridagi turli illatlarni tanqidiy yo'sinda tasvirlaydi. Shu holatning ifodasi sifatida yaratilgan ijod namunalari hajviyotni tashkil etadi. Kishi bu dunyoga kelibdiki, u nuqson va kamchiliklardan, illatlardan butkul yiroq bo'lolmaydi. Yig'i bilan kulgi ham unga shunchalik sherikdir. Habib Siddiq hajviyoti haqida gap ketganda, asosan

shuni ta'kidlash lozimki, u asarni shunchaki yaratmaydi, balki asar va uning qahramonlari bilan birga yashaydi. Bu hikoyalarda satira va yumorning betakror, hech kimnikiga o'xshamaydigan tarzda tasvirlangan ko'rinishlariga duch kelamiz. Dastavval bu tushunchalarning mazmun-mohiyatiga to'xtalsak. Bugungi kunga qadar satira to'g'risida bir qancha tadqiqotlar yuzaga kelgan, lekin adabiyot nazariyasi uzoq davrlardan buyon yumorga to'liq ta'rif keltirish vazifasi turibdiki, uning yordamida satira, yumor va shunday xususiyatga ega insonni yashashga undaydigan kulgiga boy asarlar o'rtasidagi farqni to'g'ri aniqlab va ajratib olish borgan sayin zarur hodisaga aylanib bormoqda. Chunki, bu hayotda bo'lgani kabi adabiyotimizda ham ana shunday kulgi o'ziga xos va betakrorlik kasb etadi. Uning mohiyati ham shundaki, u faqat kulgi yaratishdan iborat emas, balki u insonni hamisha yoshartirishga, yashashga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga katta xizmat qiladi. Betakror, beg'ubor, odamlarni bir-biriga mehribon, oqibatli, do'st, sadoqatli, vafodor va inoq qiladigan bunday kulgiga ham alohida diqqatimizni qaratdik. Hajv o'z tabiatiga ega bo'lgan mukammal, alohida bir tizim hisoblanadi. Uning tarkibi ana shu bir necha tizimlarni ng birlashuvidan iboratdir. Yumor so'zi esa, inglizcha so'zdan olingan bo'lib, fe'l-atvor, xulq so'zidan, lotinchada -suyuqlik so'zidan olingan. (Qadimgi zamonlarda kishilar yer yuzidagi barcha mavjudot to'rt unsur -suyuqlik, o't, havo va tuproqdan yaratilgan deb o'ylaganlar. Shunga bog'liq holda odamlarda ham to'rt mijoz (temperament) bor, deb hisoblangan: (xo'l, issiq, quruq va sovuq) Bundan anglashiladiki, ushbu so'z insonga nisbatan berilgan to'rt xususiyatni ifodalagan. Yumor kulgisini

o'zbekchaga zarofat (zariflik) kulgisi deb o'girish mumkin. Sababki, yumor tuyg'usiga ega insonlar nozik did, zakiy, zarif bo'lishi, hazil-mutoyibani chin dildan sevishi, xalqimiz ham bunday odamlarni aqlli, zukko, zarif deb atashi ana shunday xulosa qilish imkonini beradi bizga. Xullas, yumor-zakiylik, zarofat (yoki zarifona kulgi) kulgisidir. Biroq, hozircha yumor atamasi keng ma'noda qo'llanishi, badiiy asarlarda turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, har bir ko'rinishda o'ziga xos qirralarini alohida aks ettirishi tufayli xalqaro miqyosda iste'mol qilinishini hisobga olib, o'z holicha qabul qilgan ma'quldir. Yumorni tasvirlash usulining qonuniyligi tasvirlanayotgan voqea yoki hodisaning o'ziga xos xususiyatlaridan va san'atkorning unga munosabatidan kelib chiqadi. Adib voqea-hodisadagi haqiqiy, chin kulgini ochishga, obrazlarni individual tasvirlashga, hodisalarning har birining muhim qirralarini yoritib berishga, obyektivlikni buzmasdan ham erishishi mumkin. Voqea-hodisadagi ikkinchi darajali xususiyatlarning ijobiylikni teranroq his etgan holda aks ettirar ekan, yumorist yanada ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladi: yumor tasvirlanayotgan hodisaning real ko'rinishini o'zida ko'proq saqlaydi, hodisa va uning turli xususiyatlarini har tomonlama tasviray oladi, chunki satira ijobiy voqea-hodisalarni o'zining obyektini qilib ololmaydi, chunki satira tanqidiy va achchiq kulgi hisoblanadi. Yumor esa satiradan farqli o'laroq, ham ijobiy, ham salbiy voqea-hodisalarni yengil, kulgili qilib tasvirlash imkoniyatiga ega. Yumorda hayotiy dalillarni qayta ishlash satiraga nisbatan ancha farq qiladi. Demak, xulosa qilish mumkinki, yumorning tasvirlashdagi imkoniyatlari satiraga qaraganda kengroq. Satirada tasvirlanayotgan biror bir voqea-hodisaga nisbatan salbiy his-tuyg'uni,

xususiyatni kuchaytirish mayli ustivorlik qiladi, eng oddiy narsalar ham inkorni kuchaytiradi. Har bir hodisaga nisbatan kitobxonda jiddiy qarash shakllanadi. Satirik qahramonlarga nisbatan beixtiyor salbiy qarash paydo bo'ladi. Yumorda esa, aksincha, yumoristik lavhalaridagi, obrazdagi komizm - bu hodisaning umumiy ijobiyliги ortida berilayotgan narsalar komizmidir. Yumoristik bo'lmagan obrazlarning hajviy qirralari personajlarning ichki hayoti yoki tashqi ko'rinishlariga tegishli xarakter-xususiyatlari har-xil shakllarda berilishidan qat'iy nazar, undagi ijobiy taassurotga ta'sir qilmaydi. Yumorga pafosning bir ko'rinishi deb qarash ham uning imkoniyatlari ancha kengligini ko'rsatadi. Yumor asosida muallifning voqelikka nisbatan kulgili va ijobiy munosabati yotadi, bu munosabat g'azab bilan emas, balki achinish, hamdardlik, ba'zan beozorlik tuyg'ularida ifodalanadi. Yumor o'zining bir qancha qirralari bilan o'zaro munosabatlarda ajralib turadi: unga goh achinish, goh xursandlik, goh qoniqish, goh narsalarni komiklik chegarasidan uzoqlashtirib, ba'zan yuksaklikka, ba'zan qahramonlikka, ba'zan go'zallikka yaqinlashtiradigan faylasufona munosabatlar xosdir. Habib Siddiq asarlarida kulgining juda ko'p shakllariga duch kelamizki, bu esa o'z navbatida kulgining imkoniyatlari juda ham keng ekanligini ko'rsatib beradi. Lekin shunga qaramay, adib asarlarida, xususan, hikoyalarida satirik ruh ustunligini ko'rishimiz mumkin. Sababi yozuvchi shunchaki hajviya yaratmaydi, balki qahramonlarining kamchiliklarini satira orqali fosh etadi. Yozuvchi hikoyalariga e'tibor qaratsak, hikoyalar hajman kichik, nari borsa ikki- uch betdan oshmaydi, qahramonlar ham oramizdagi oddiy odamlar, biri o'qituvchi, biri qassob, biri oddiy ishchi yana biri aravakash

yoki shoir. Ular ko'z o'ngimizda ba'zan sodda, oddiy, kamtarin, halol odamlar sifatida gavdalansa, ba'zan g'alamis, quv, bironing haqidan qo'rqmaydigan, o'z manfaati yo'lida hech narsadan qaytmaydigan insonlar sifatida namoyon bo'ladi.

Habib Siddiq hikoyalari mavzu jihatidan ham xilma-xil. Hikoyalarning mavzusiga razm solsangiz, hayotimizdagi deyarli barcha mavzularni uchratish mumkin. Adib bir hikoyasida Vatan mavzusini qalamga olsa, yana birida insoniylik, yana birida do'stlik, muhabbat, poraxo'rlik, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik kabi mavzularni satirik kulgi vositasida ko'rsatib beradi. Yozuvchi hikoyalarida turmushning barcha manzaralarini uchratish mumkin

Adib ijodida satira va yumor yetakchi o'rin tutadi. Bular holatga qarab, goh achchiq goh yengil kulgi tarzida. Kulgi- o'zbek xalqining qon- qoniga singib ketgan fazilat. Kulgida xalqimizga xos teran zukkolik, quvnoq tabiat, nozik ta'b, baland zavq, yuqori iste'dod va ajoyib salohiyat namoyon. Hazil, yumor zavqlantiruvchi kulgi qo'zg'aydi. Hajv- satira ham kulgi, g'azabli qahqaha. Bu qahqaha kimlarningdir ustida chaqmoq bo'lib qarsillaydi, o'tkir tig' bilan sanchiladi. Abdug'ani Abduvaliyev ijodida ana shu hajv- satira ustunlik qiladi.

Xalq maqollari- matallari va masallarida, qo'shiqlari va dostonlarida latifa va askiyalarida, ertaklari va asotirlarida kulgi keng o'rin tutadi. Yozma adabiyotda kulgi qadimgi yodgorliklardan tortib qo'llanib kelinadi. Kulgi, hajv o'zbek adabiyotining kuchli jihatlaridan. Habib Siddiq o'z asarlarida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning ana shu an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirgan va rivojlantira olgan. Yozuvchi asarlarini o'qigan kitobxon

mazza qilib kular ekan, ko'nglining bir cheti yig'layotganini his etadi. Sababi yozuvchining qahramonlari oramizdagi odamlar, ularni har qadamda uchratamiz.

Habib Siddiq asarlarini xarakterlaydigan, badiiyligini belgilovchi fazilatlaridan biri ularning xalqchilligidir. Adib hayot voqealarini haqqoniy tasvirlaydi., dil ranji va ozorlarini xalq manfaati nuqtai nazari asosida aks ettiradi, turmushdagi illatlarni ochib tashlash bilan birga, eng ezgu insoniy fikr, tuyg'ularni, ijobiy xislatlarni oldinga suradi. Yozuvchi asarlaridagi xalqchilik yana badiiy shaklning soddaligi va boyligida, Xalq jonli tili, iboralaridan, ifodaliligidan keng va maqsadga muvofiq foydalanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adibning badiiy obrazlari turmush voqealarini obdon kuzatish va o'rganish asosida yaratilgan. Shuning uchun ular xatti-harakatlari, ichki va tashqi qiyofalari bilan aynan hayotdagi kishilar kabi ko'z oldingizga keladilar. Bu yozuvchining xarakterlar yaratishdagi san'atkorlik mahorati samarasidir.

Yozuvchi Habib Siddiq hajviyalarining asosiy maqsadi, jamiyatdagi, insonlar xarakteridagi kamchiliklarga oyna tutish. U salbiy hollarni fosh qilishda, adabiy tiplar silsilasini yaratishda, ularning nutqida kulgi qo'zg'ashning turli- tuman usullaridan foydalanadiki, bular uning badiiy salohiyati, xarakterlar yaratishdagi mahorati, o'ziga xos san'atkorlik iste'dodi samaralaridir. Yozuvchining asarlarida hajviy tasvir xalq og'zaki ijodining kesatiq, qochirim, kinoya, piching, istehzo, masxara, ishora, mubolag'a

kabi ommalashgan usullari vositasida bo'rttiriladi.

Habib Siddiq asarlaridagi sadoqat, mehr, odamgarchilik, ishonch, e'tiqod singari ma'naviy qadriyatlar qahramonlar qon-qoniga singib ketgan. Adib o'z asarlarida inson ruhiyatidagi tovlanishlarni ko'rsatib berishga katta e'tibor qaratadi va aynan shu e'tibor asarning zavq bilan o'qilishini ta'minlaydi. Samimiy tasvirlangan obrazlar Habib Siddiq hikoyalarining o'ziga xos, betakror tarovatini ta'minlaydi. Ularni bugungi kun kitobxonlari uchun qadrli qiladi.

Adibning hikoyalariga e'tibor qaratsak, aksar hikoyalar kichik hajmli, yumoristik yoki satirik xarakterda. Yozuvchi qalbini o'rtayotgan qaysidir muammoni yumor yoki satira vositasida yoritadi. Hikoyalar mavzu jihatidan xilma-xil, qahramonlar turfa. Yozuvchining qahramonlari goh oddiy, sodda, halol, mehnatkash, ishonuvchan o'qituvchi, goh hayolparast shoir, goh usta loykash, goh poraxo'r amaldor, gohida bemehr farzand, gohida doim odamlarni aldaydigan qassob. Yozuvchi qaysi mavzuda qalam tebratmasin, baridan maqsad bitta: jamiyatdagi qaysidir kamchilikni ko'rsatish, biror illatni qoralash- bir so'z bilan aytganda, insonlarga ezgulik ulashish. Shunday ekan adib asarlari oradan yillar o'tsa-da, o'z o'quvchisini, badiiy qimmatini yo'qotmaydi. Insonlarning yuziga tabassum ulashib, qalbini ezgulikka chorlayveradi. Qolaversa o'zbek adabiyotning eng nodir namunalaridan bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Habib Siddiq. Chirog'i yoniq xonadon. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013.-B.263.
2. Habib Siddiq. Inglizcha tush. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.-B.109

3. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – 153 b.
4. Habib Siddiq. Hayot yo'lga o'xshaydi. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti,2008-B.48.
5. Sharopova N. Og'zaki lirika janrlariga murojaat etish tamoyili// O'zbek tili va adabiyoti. 1998. №2. 28-32-betlar

MUNDARIJA

Xoshimova Umida Talat qizi Amaliy san'at darslarida talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning badiiy ta'lim nazariyasi va amaliyotdagi holati.....	3
Abduqaxxarov Murodilla Omonullo o'g'li Bolalardagi atipik pnevmoniya kasalligining vujudga kelish sabablari va uni zamonaviy tibbiyotda samarali davolash usullari.....	7
Jo'raxo'jayeva Sayyora Dedamirza qizi Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	11
Nasrullayev Bexruz Computer science scientific approaches.....	17
Mirzayeva Husnida Dilshodbek qizi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining ahloqiy sifat kompetensiyalari.....	27
Nigmatova Mo'tabarxon Xusanovna Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	32
Abduvaxopova Mahliyohon Azizillo qizi G'o'zaning g.barbadense l. ingichka tolali turining turichi duragay shakllarida morfo-biologik belgilarning irsiylanishi.....	37
Qosimov Karimjon Zuhriddinovich., Maxmudov Ikrorxon Rustamxon o'g'li., Sultonov Rasuljon Shahobiddin o'g'li., Isaboyev Toxirjon Mexmonovich Chizel-kultivator lemexlarini yeyilishga chidamli materialini asoslab resursini oshirishning eksperimental tadqiqot natijalari.....	44
Yuldasheva Yulduz Muhammedovna Ta'lim jarayonini boshqarish va uning sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash.....	51
Yusupova Feruza Murtazoxonovna Ta'lim muassasalari rahbarlarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasining tarkibiy qismlari.....	56
Ziyavitdinov Zafar Mahmudovich Ta'lim muassasa rahbarlari huquqiy savodxonligini rivojlantirish mazmuni va prinsiplari.....	62
Baxriddinova Muazzamxon Fazlitdin qizi Habib siddiq- hajv ustasi.....	68

UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNALI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan ixtisoslik sifatida ro‘yxatga olingan quyidagi sohalarini qamrab oladigan o‘zbek, rus, ingliz tillarida davriy ochiq elektron jurnal.

- 01.00.00 – Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 – Kimyo fanlari
- 03.00.00 – Biologiya fanlari
- 05.00.00 – Texnika fanlari
- 06.00.00 – Qishloq xo‘jaligi fanlari
- 07.00.00 – Tarix fanlari
- 08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari
- 09.00.00 – Falsafa fanlari
- 10.00.00 – Filologiya fanlari
- 11.00.00 – Geografiya fanlari
- 13.00.00 – Pedagogika fanlari
- 19.00.00 – Psixologiya fanlari

Jurnal ta‘sischilari: “Ilm-fan fidoyilari” MCHJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami: **№ 245196**

GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari asosida bo‘lishini to‘liq ta‘minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi o‘rnatilgan tartibda raqam taqdim etildi asosan davriy nashrlarini ISSN tartib raqami bilan belgilash uchun qo‘yidagi raqam taqdim etildi: **ISSN - 3060-4540**

Tahrirat manzili: 170805 O‘zbekiston Respublikasi, Andijon v., Marhamat t., Qashqar ko‘chasi, 189

© Jurnalda berilgan materiallarning mazmuni va haqqoniyligiga mualliflarning o‘zlari javobgardirlar.

<https://universaljurnal.uz>, info@universaljurnal.uz, +998901423938; +998902090807